

Sizni nima qiynayapti?

Navbat kutib charchadik

Buxoro viloyat hokimligi diqqatiga! G'ijduvon tumanidagi 1968-yili ishga tushgan 9-maktab 1978-yildayoq zilzila tufayli avariya holatiga tushib qolgan. O'sha yillari viloyat boshqarmasidan kelgan maxsus guruh ham shunday xulosa bergan edi.

2-bet



8-9-betlar

Ivan Vasilyevich (chindan ham) kasbini o'zgartiradi

Tarixning shunday sahifalari borki, saboq uchun ba'zan varaqlab turishga to'g'ri kela-di. Tarix bizniki yoki boshqa xalqni bo'lishi mumkin — lekin uning bizga daxli yo'q deyol-maysiz.

12-13-betlar

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 25-mart, chorshanba № 13 (9286)

Xalq ziyolilari gazetasi

Namangan viloyat hokimligi diqqatiga!

Maktab binosi nega MTTga olib berildi?



Chortoq tumani Alixon qishlog'ida joylashgan 18-umumiy o'rta ta'lim maktabining 320 o'rinli birinchi o'quv binosi 1974-yili qurilgan, 1998-yili esa o'quvchilar soni ko'paygani, sinfxonalar yetishmay qolgani inobatga olinib, qo'shimcha o'quv binosi barpo etilgandi. 2018-yilga kelib esa maktabda 520 nafar o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya olayotgan edi.

3-bet

Abituriyentlar, ota-onalar va o'qituvchilar diqqatiga!

Marifat

DTM

DAVLAT TEST MARKAZI

Bu yil ham Davlat test markazi va "Ma'rifat" gazetasi hamkorligi davom etishini ma'lum qilamiz. Abituriyentlarning test sinovlariga puxta va samarali tayyorgarlik ko'rishiga ko'maklashish maqsadida gazetamizning navbatdagi sonlarida imtihon olinadigan fanlar bo'yicha **Davlat test markazining aprobatsiyadan o'tgan test savollarini e'lon qila boshlaymiz.**

O'zingizning, farzandingiz va o'quvchigizning kelajagiga befarq emasmisiz? Unday bo'lsa, vaqtni yo'qotmang! Gazetamizga **obuna bo'lishni istasangiz**, hududingizdagi "Matbuot tarqatuvchi" va pochta bo'limlariga murojaat qilib, obunani rasmiylashtiring.

"Ma'rifat"ga obuna bo'ling va test savollari bilan tanishishga tayyorgarlikni hozirdan boshlang!

Obuna indeksi — 150.

www.marifat.uz

/marifat.uz

@marifatziyo

Nuqtayi nazar



Suratdagi xotira

10-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



O'quvchilarimni sog'inganimni o'ylab tursam, kechagi berilgan topshirig'imning javoblari telegram orqali kela boshladi. 2-sinf o'quvchilarimning biri maktabning rasmini chizgan, biri bayroq, yana biri o'qituvchisini, boshqasi maktab stadionini, xullas, barcha suratlarda bolajonlarimning maktabi, o'qituvchisi, darslarini sog'ingani shundoqqina sezilib turibdi. Men ham ularga qanchalik mehrim tushib qolganini yanada chuqurroq angladim. Faoliyatimiz asosi o'quvchilarimiz ekan. Bu kunlar ortda qolib barcha eson-omon o'z maskaniga qaytishini Ollohdan so'rab qolaman.

Xosiyat EGAMBERGANOVA

Karantin davrida vaqtdan unumli foydalanishga harakat qilyapmiz. O'quvchilarim bilan onlayn darslar tashkil etganmiz. Ularga "Kim ko'p er-tak o'qiydi?", "Kim chiroyli yozadi?", "Men oilam bilan" kabi mavzularda insholar tanlo-vini ham e'lon qildim! Bundan tashqari o'zim "Zoom" dasturi orqali "Скорочение" ga o'qiyapman. 3-sinfda o'qiydigan qizim "my clever start.ru" onlayn platformasidan foydalanib, mental arifmetikaga o'qimoqda. 7-sinf qizim esa onlayn olimpiadaga tayyorgarlik ko'rmoqda. Kichkinamiz ham bekor emas: "Bolajon" telekasturallarini kanda qilmay tomosha qiladi.

Dilnoza BOQIYEVA

Psixolog — insonlarning ruhiyati bilan ishlaydigan inson. Hozirgi qiyin kunlarda maktab psixologlarining mas'uliyati ikki karra ortdi, menimcha. Bu paytda ular o'quvchilar, ota-onalar va pedagog xodimlarga psixologik xizmat ko'rsatishi lozim. Aholi o'rtasida urchib borayotgan vahimaga barham berish, xotirjamlikni ta'minlashga hissa qo'shishi kerak, deb bilaman. Aksariyat maktablarda sinflar kesimida ijtimoiy tarmoqlarda guruhlar tashkil etildi. Mana shu guruhlarga psixologlar ham a'zo bo'lgan holda o'z tavsiyalarini onlayn tarzda berib borsin. Ota-ona va o'quvchilarda motivatsiya ug'otib, turli qiziqarli mashg'ulotlar tashkil qilsin.

Abdurashid BOYBOBOYEV

Uyda qoling va koronavirusni bartaraf etishga hissa qo'shing!

Aziz ustoz-murabbiylar! O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tomonidan koronavirusga oid rasmiy xabarlar e'lon qilib boriladigan maxsus telegram-kanal ishga tushirilgan.

Unda epidemiologik vaziyatga oid ishonchli va aniq ma'lumotlar berib borilmoqda.

Aholi o'rtasida vahima tarqatadigan turli asossiz va yolg'on xabarlar ishonmang. Pandemiya va unga qarshi ko'rilayotgan choralar to'g'risidagi aniq ma'lumotlar bilan "Koronavirus Info | Uyda Qoling!" (@koronavirusinfouz) kanali orqali tanishib boring.

2020-yil 23-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra:

— fuqarolar tomonidan Internet jahon axborot tarmog'i va telefon aloqasi uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli ikki oy davomida o'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi;

— idoraviy bo'ysunuv va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha tashkilotlarning asosiy ish faoliyatiga ta'sir etmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xodimlarni mehnat ta'tiliga chiqarish, qolgan qismining mehnat faoliyatini maksimal darajada masofadan turib ("onlayn" rejimda yoki masofaviy tarzda) tashkil etish choralarini ko'riladi;

— Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan dehqon bozorlaridan tashqari barcha bozorlarning faoliyati to'xtatildi;

— boshqa hududlardan Toshkent shahriga kirish (avtobus, mikroavtobus, yengil avtotransport, aviaqatnovlar va temir-yo'l transporti vositalari orqali) to'xtatildi.

2020-yil 24-martdan maktablarda faqat direktor (yoki o'rinbosari) va qorovulgina ish joyida bo'ladi. Boshqa xodimlar masofadan ishlaydi yoki o'z xohishiga ko'ra ta'tilga chiqadi. Bu to'g'rida Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov o'zining "Facebook"dagi sahifasiga post joyladi:

"Ertadan, ya'ni 24-martdan, maktablarda faqat rahbarlaridan biri (direktor yoki o'rinbosari) va qorovullar ish joyida bo'lsa yetarli. Avval xabar berganimizdek, ishda qolayotgan boshqa o'rinbosarlar, psixolog, yoshlar yetakchisi o'z ishlarini masofadan turib bajarishga o'tadilar yoki o'z xohishlariga ko'ra ta'tilga chiqadilar.


Uyda qolish va cheklovlarning muhimligi haqida

Prezidentimiz topshirig'iga ko'ra Respublika komissiyasi tomonidan koronavirusning tarqalishini kamaytirish bo'yicha zudlik bilan choralar ko'rilishi ba'zi insonlarga juda qat'iy choradek yoki vahimadek ko'rinayotgani haligacha ko'pchilik bu masalaning qanday muhim ekaniga yetarlicha e'tibor qaratmayotganini bildirmoqda.

Chet ellik olimlar tomonidan shu grafik juda ko'p muhokama etilmoqda, keling, uni tushunishga harakat qilaylik.

1-holatda davlat tomonidan zudlik bilan qat'iy cheklovlar qo'yilmasa, infeksiya tez tarqalib, kundalik kasallanganlar soni sog'liqni saqlash tizimi imkoniyatlaridan juda ko'p ortib ketishi mumkinligi ko'rsatilgan.

2-holatda esa davlat tomonidan zudlik bilan qat'iy cheklovlar ko'rilishi natijasida kundalik kasallanganlar soni juda tez ortmasligi sababli, kundalik kasallangan-



lar soni sog'liqni saqlash tizimi imkoniyatlaridan oshib ketmasligi ko'rsatilgan.

Ikkala holatda umumiy kasallanganlar soni bir xil bo'lgan taqdirda ham, birinchi holatdagi davlat ko'ra ikkinchi holatda ko'proq insonlar hayoti saqlab qolinadi.

Ba'zi iqtisodiy rivojlangan davlatlar birinchi holatlar aniqlanganda qat'iy choralarini ko'rishga shoshilishmadi, keyin esa infeksiya birdan ko'payib ketganda shunday rivojlangan sog'liqni saqlash tizimiga ega bo'lishsa-da, imkoniyatlarini yetmay qolayotganini ham ko'rib turibmiz.

Shuning uchun hukumatimiz tomonidan birinchi infeksiya aniqlangandan boshlanib ko'rilgan va tizimli kuchaytirib borilayotgan barcha cheklovlarga rioya qilish juda muhimdir.

P.S.: Uyda bo'lgan vaqtinizdan unumli foydalaning, farzandlaringiz bilan birga ko'proq kitob o'qing".

#vahimasizkarantin

Sizni nima qiynayapti?

Navbat kutib charchadik Buxoro viloyat hokimligi diqqatiga!

G'ijduvon tumanidagi 1968-yili ishga tushgan 9-maktab 1978-yildayoq zilzila tufayli avariya holatiga tushib qolgan. O'sha yillari viloyat boshqarmasidan kelgan maxsus guruh ham shunday xulosa bergan edi. Shundan buyon mazkur maktab navbat kutish bilan ovora. 2012-yili maktabimiz kapital ta'mirdan chiqarildi. Koridor pollari almashtirildi, lekin sinfxonalarning pollari umuman talabga javob bermaydi. Yamoq tushaverib asli qanaqaligi ham bilinmay qolgan. Eski binolarimiz yaroqsiz bo'lib qolgandan so'ng buzishga buyruq berildi. Endi esa sinfxonalar yetishmasligidan ahvolimiz tang.

Bugungi kunda maktabimizda 730 nafar o'quvchi, 28 ta sinf mavjud. 1-smenada 462, 2-smenada 268 o'quvchi ta'lim olmoqda.

Kotiba, hamshira, yetakchi, direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari uchun 1 ta xona. Direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari esa o'qituvchilar xonasida faoliyat yuritadi. O'qituvchilar xonasi biz uchun majlislar xonasi, to'garak o'tadigan yagona xona, tadbirlar o'tkazadigan zal va zifasini o'taydi. Tadbirlarimiz tugaguncha o'qituvchilarimiz tashqarida tik oyoqda turishga majbur.

Prezidentimiz tomonidan joriy etilgan 5 tashabbusni yo'lga qo'yish uchun imkoniyatning o'zi yo'q. Sport zalimiz yo'qligi sababli o'quvchilar darslarni tashqarida loyda, qorda, sinfxonalarda o'tkazishyapti. To'garaklar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishga joy yo'qligi sababli o'qituvchilar o'quvchilarni uylariga chaqirishga majbur bo'lishyapti.

20 yildan buyon maktabimiz ustozlari bitta oshxonaga muhtoj. Darslar 2 smenada tashkil etilgani tufayli o'g'il-qizlar kun bo'yi issiq ovqatsiz yurishadi.

Maktabimiz yana ta'mirga tushishi, o'quvchi sonidan kelib chiqib bino quvvatini oshirish choralarini ko'rishlarini istaymiz, ammo navbat bizning muassamizga qachon kelishini kutishdan charchadik. Navbatimiz endi keldi deganda, birdan yana bir yilga surilib ketadi. O'tgan yili 2020-yilda navbatimiz kelarkan, deb xursand bo'lib turganimizda to'satdan 2021-yilga tushib ketgan edik. Bir yil o'tar-ketar deb o'zimizni ovutdik. Shu yilgi rejaqa qarasa, 2022-yilga tushibmiz. "Bola yig'lama, onasi sut bermaydi", degan naql bor xalqimizda. Shu naqlga amal qilib, matbuot orqali murojaat qilishga majbur bo'ldim. Maktabimiz direktori bir necha bor mutasaddi tashkilotlarga yozma murojaat qildi. Lekin natijasi bo'lmadi. Javob xatlarida ham masala navbatga borib taqalyapti. Navbat ham bir kun kelar deysiz, ammo shu vaqtda shunday sharoitda tahsil olayotgan bolalarning yo'qotilgan imkoniyatlari, bo'shliqlari o'tmi qachon to'ldiriladi?!

Zilola ALLAMURODOVA,
G'ijduvon tumanidagi
9-maktab o'qituvchisi

Hokim buva, deputat aka!

Ular ham yorug', shinam xonalarda o'qishni istaydi!

Samarqand viloyat hokimligi diqqatiga!

Urgutga borganimda o'zim o'qigan 28-maktabni ziyorat qildim. Sovuq edi. Ammo o'quvchilar oyog'i tagidagi betondan o'tadigan xaxga ham, eshikning yorig'idan kirib, derazaning tirqishidan chiqib ketayotgan sovuq yelvizakdan ag'nab ketaman deb turgan partalarga ham, go'yo tarix darsida o'tilayotgan ibtidoiy odamlarning yog'ochdan yasab ketgan doskasiga ham e'tibor qaratmasdan xush kayfiyatda dars o'tmoqda. Chunki ular ko'nikkan. Boshqa iloji ham yo'q...



Ular "maktabimiz keyingi yili qayta ta'mirlashga tushadi", degan va'dalarni biz tengi, bizdan ham katta akalari o'qigan paytda ham eshitib yurardi. Boringki, ularning ota-onalariga ham bunday "ertaklar" tanish bo'lgan. Demak, o'quvchilarni "yaqin kelajakda" porloq hayot kutaypti. Yana, ularning televizor ko'rgan payti chiroyli,

zamonaviy, issiq, yorug' sinfxonalarda o'qiyotgan tengdoshlariga qarab ko'nglidan o'tkazadigan iliq "orzusi" bor. Ularning ota-onalari esa maktab direktori, tuman hokimi va saylovda qop-qop va'da berib, shundan keyin ko'rinmay ketgan deputatlarning TASHABBUSlarini kutmoqda.

Jahongir MARDONOV

Maktab binosi nega MTTga olib berildi?



(Davomi. Boshi 1-betda.)

Aynan shu yili ta'lim muassasasida "Obod qishloq" davlat dasturiga binolar qurilish-ta'mirlash ishlari boshlanadi. Biroq mukammal qayta qurilishi boshlangan o'quv binosi maktab tasarrufidan olinib, shu qishloqdagi 27-maktabgacha ta'lim tashkilotiga berilganini eshitgan ota-onalar va pedagoglar hayron bo'lishdi. Axir shundoq ham sinfxonalari kamligidan ikki smenada ishlayotgan maktab o'qituvchilari va o'quvchilari nima qilishadi?

Aslida 18-maktabning har ikki binosi ham ta'mirlanib, isitish, yoritish tizimi mukammal qarovga muhtoj, bino ichkarisidagi xonalarning poli, shiftlari allaqachon yangilashni talab etayotgan, qishda ismaydigan sport zali bir talay qiyinchilik tug'dirayotgan ahvolga tushib qolgan edi. Maktabning eng keyin qurib berilgan o'quv binosi maktabgacha ta'lim tashkilotiga olib berilishining sababi nima? Yaroqsiz binoda ta'lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etish mumkin? Kullas, yangi paydo bo'lgan muammo maktab rahbarlaridan tortib o'qituvchilarni o'ta-onalarni ham o'ylantirib qo'ydi. Ular o'y surgunicha 27-maktabgacha ta'lim tashkiloti qayta qurilgan va mukammal ta'mirlangan binoda o'z faoliyatini boshladi. Ustiga ustak maktab oshxonasi, stadioni va 2 gektar yeri ham uning tasarrufiga o'tib ketdi.

Albatta, bu ishlar ochiq-oydin, aniqrog'i, tumanning 2018-yildagi hokimi Oybek Haydarovning 12-iyulda qabul qilgan 1121-sonli qaroriga ko'ra amalga oshirildi. Mazkur qarorga esa go'yo Chortoq tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Sh.Turg'unova va maktabgacha ta'lim bo'limi rahbari U.Alijonovning 18-maktab binosida 27-MTTni joylashtirishga ruxsat berish mazmunida yozgan xatlari asos qilingan. Ammo qog'ozda bor, amalda yo'q bu xatlar bilan tanishmoqchi bo'lganimizda ularni topib bo'lmadi. Ha, ishonaverim, na tuman xalq ta'limi bo'limi, na tuman hokimligining umumiy bo'limida bu xatlar bilan tanisha olmadik. Ular hech qayerda qayd etilmagan, hujjatlar to'plamlariga kirit-

ilmagan. Qiziq, tuman xalq ta'limi va maktabgacha ta'lim bo'limlarining xatlari haqiqatda yozilgan edimi yoki tuman hokimi qarorini xaspo'shlash uchun kiritilgan? Nima bo'lgandayam uning ijrosi ta'minlandi. 18-maktab yangi binosidan ayrilib, katalakdek joyga tiqilib qoldi.

2018-2019-o'quv yili arafasida tug'ilgan mazkur muammo yangilariga yo'l ochib berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchilar yilning sovuq fasllarida umuman ismaydigan maktabda ikki qishni o'tkazishdi. Xonalar yetishmasligidan to'garaklar va qo'shimcha mashg'ulotlar uyushtirish qiyinlashdi. Biz maktabga borgan fevral oyining o'rtalarida uch-to'rtta sinf xonasiga kirdik. Ta'lim muassasasi hamshirasi Tursunoy Ismoilova sinfxonalarga o'rnatilgan harorat o'lchagichlar ko'rsatayotgan raqamlarni birma-bir yozib berdi. Bino ichkarisidagi xonalarda harorat 10-12 daraja atrofida qayd etildi. Biroq o'quvchilar-u muallimlarni qiynayotgan muammo shu bilan cheklanmaydi.

— Maktab oshxonasi va sport maydoni MTTga berilgani bois o'quvchilarni ovqatlantirish, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish oson kechmayapti, — deydi maktab kuzatuv kengashi raisi Nasiba Darvisheva. — Ularning musiqa xonasi shundoq boshlang'ich sinflar xonasiga tutash. Bolalar uchun mashg'ulotlar boshlansa, dars o'tishga xalaqit berayotganini ta'kidlashmoqda o'qituvchilar. O'zi shundoq ham o'quvchilar tor xonalarda saboq olishadi.

Shu yerlik Husanboy Hamroyevning 6 nafar farzandi shu maktabda o'qiydi. Ularning o'qishga kelib-ketishi, xavfsizligini ta'minlashdan xavotir olayotgan H.Hamroyevning tashvishi farzandlari ikkinchi smenada o'qiydigan boshqa ota-onalar uchun ham begona emas.

— Avvallari 4 nafari bir smenada ta'lim olayotgan edi, — dedi u. — Hozir farzandlarim kichik sinflarda o'qishi tufayli ikkinchi smenaga kelishyapti. Maktabga serqatnov, transport harakati nazorat qilinmaydigan yo'ldan kelishadi. Ular o'qishdan qaytguncha yurak hovuchlab kutamiz. O'quv binosi ham

1974-yili eski qolipda qurilgani uchunmi, yo'laklar tor. Yorug'lik kam tushadi.

Biz bilan sinfxonalarini birga aylangan hamshira Tursunoy Ismoilovaning ham dardi ichida ekan.

— 2019-yilning 28-noyabrda Prezidentning virtual qabulxonasiga murojaat qilib, maktabimizda yetarli shart-sharoit yo'qligini bildirgan edim, — dedi Tursunoy. — Murojaatim tuman xalq ta'limi bo'limiga ko'rib chiqish uchun yuborilgan ekan. Unga javoban sport zali isitish tizimi ta'mirlandi. Stadion ham mening va direktorimizning qayta murojaatidan so'ng maktabga qaytarildi. Chunki u maktab balansida, kadastr hujjatlari maktabga tegishli edi. Binoni ta'mirlash va isitish tizimini yangilash esa kelgusi yillarda amalga oshirilishini ma'lum qilishgan. O'quv binosi, oshxona, maktabning 2 gektar yerini qaytarishning esa

nafar bola jamlangan. Chunki mahalla hududida 6 yoshgacha bo'lgan, maktabgacha ta'lim tizimiga tortiladigan 470 nafar bola ro'yxatga olingan. Shundan ham ayonki, bu bino ehtiyojni qoplamaydi. Eski bog'cha o'rmiida esa 240 o'rinni bino qurish imkoni bor edi. Meni yana bir muammo o'ylantiryapti. Bu yil maktabga qabul qilinadigan bolalarning barchasi kuni uzaytirilgan guruhlariga jalb etilishi belgilangan. Bizda esa buning uchun xona yetishmaydi.

Endi e'tiboringizni yana bir inshootga qaratmoqchimiz. 18-maktab yonida sobiq Chortoq ijtimoiy-iqtisodiyot kollejining butun boshli binosi bo'sh turibdi. 2019-2020-o'quv yili boshlanishida mazkur kollej binosi 18-maktabga "tuhfa" etildi. Maktab o'quvchilari sentabr-oktabr oyida shu yerda o'qishdi. Keyin Namangan muhandislik texnologiyalari



18-maktab yonida sobiq Chortoq ijtimoiy-iqtisodiyot kollejining butun boshli binosi bo'sh turibdi.

iloji yo'q ekan. Tuman hokimining qarori bunga imkon bermasmish.

Chortoq tumani hokimining biz ta'kidlagan "qarori" qanchalar kuchli, maktab binosi, yeri va boshqa inshootlarini olib qo'yishga hokimning qonuniy vakolati bormi, bu savolga huquqshunoslardan javob olamiz, degan umiddamiz. Ammo, asos qilib ko'rsatilgan ikkita tuman tashkilotining xatlari topilmagan mazkur qaror zamirida qandaydir boshqa maqsad borligiga ishora qilyapti. Gap Alixon mahallasi markazida 27-MTTning sobiq binosi va yeriga borib taqalayapti. Tuman hokimligi 2018-yil "Obod qishloq" dasturi asosida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlari rejallashtirayotganda 27-MTT binosini ta'mirlash ro'yxatiga kiritmaganmi? Yoki Alixonda maktabgacha ta'lim muassasasiga jalb etiladigan bolalar yo'qmi? Aynan shu savol bilan 27-MTT mudiri Manzura Mirzaxolovaga murojaat qildik.

— 18-maktab binosini moslashtirib beramiz, shu yerga ko'chasizlar, deyishganda hayron bo'ldik, — dedi M.Mirzaxolova. — Ko'chdik ham. Ammo, moslashtirilgan binodan ko'nglimiz to'lmadi. Sharoit yetarli emas. Ikkinchidan, 120 o'rinni deb aytilgan muassasada 190

instituti mutasaddilari kelib, kollej binosi institut tasarrufiga o'tkazilganligini, shu sabab uni tezda bo'shatishni talab qilishadi. O'quvchilar yana tor maktabga qaytishga majbur bo'lishdi. Qiziq, Alixonda 60-70 chaqirim olisda, viloyat markazida joylashgan sobiq kollej binosi nega endi shu yerda chitoy bo'laturib, institutga in'om qilindi?

Alixonlik o'qituvchilar, maktab yetakchilari, ota-onalar biz ta'kidlagan muammo bo'yicha qancha idoralar eshigini qoqqanligini aytishdan naf yo'qligi bois ularni sanab o'tmadik. Shuningdek, berilgan javoblarni ham pisanda qilmayapmiz. Chunki ular ijobiy bo'lganda mazkur muammo "Ma'rifat" sahifalariga chiqmagan, yo'l, ko'pri, maktab qurish singari savobli ishlarni qilish o'rni bir maktab binosini asossiz qaror bilan boshqasiga "sovg'a" qilgan tuman hokimi, uning bu ishini loqayd kuzatib turgan xalq ta'limi bo'limi mutasaddilarning tinchini buzmagan bo'ldik.

Biz mazkur masalada Namangan viloyat hokimligi, xalq ta'limi boshqarmasi, Chortoq tuman hokimligi, tuman xalq ta'limi bo'limi rahbarlarining munosabatlarini bilsak, ayni muddao bo'lardi.

G'anisher AKBAROV,
"Ma'rifat" muxbiri

Mutaxassis minbari

Dars o'zi nima? Metod va uslub-chi?

Hayotning o'zi dars, ota-onalarimizning kundalik turmushi — dars, qo'ni-qo'shnilarining bir-biriga munosabati — dars, mahalladagi to'y-marosimlar — dars, tajribali insonlarning o'g'itlari — dars, kitob o'qish — dars, televizor ko'rish — dars, internetda o'tirish — dars, dasturxon atrofida o'tirish — dars. Dars olishning turlari va shakllari juda ko'p. Ammo biz to'xtalmoqchi bo'lganimiz, bu maktablardagi darsdir.



Dars deb o'qituvchi va o'quvchilarning bir maqsadni ko'zlagan tartibli faoliyatiga aytiladi. Agar o'quvchi darsga tayyor bo'lmasa, ya'ni dars olishga ishtiyoqi, xohishi bo'lmasa va sizni xushlamasa, qanchalik harakat qilmang, biror-bir natijaga erisholmaydiz. Yoki o'quvchilar dars olishga ishtiyoqmand, ammo o'qituvchi darsga tayyor emas, kayfiyati yoki sog'ligi bunga yo'l bermasa ham dars samarasi haqida gapirishning hojati bo'lmasa kerak. Demak, dars samarali bo'lishi uchun har ikki tomonning maqsadlari va intilishlari mushtarak bo'lishi talab etiladi. Shu sababli, har bir o'qituvchi darsga puxta tayyorlangan holda, yaxshi kayfiyat bilan kirib borishi va o'quvchilarning darsga tayyorligini zimdan kuzatishi, ularning diqqat va xotiralarini darsga qaratish olishi hamda ularni darsga jalb etishi zarur. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning psixologik va jismoniy holatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etishi lozim. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qituvchilarning qovog'idan qor yog'ilib, darsga kirgan zabotishoq mashg'ulotni boshlab yuhoriyashadi, o'quvchilarning darsni tinglashga tayyorligini hisobga olishmaydi. Bunday darsning samarasi qoniqarli bo'ladi, deb bo'lmaydi. Darsning "chokidan so'tilishi" ana shundan boshlanadi, desak to'g'ri bo'ladi.

O'quvchilarni darsga qiziqitirish, ularda motivatsiya uyg'otishning usullari va uslublari bisyor. Buning uchun o'qituvchidan juda katta hayotiy tajriba, mahorat, bilim va intilish talab etiladi. Sinf o'quvchilarning intilishlari, qiziqishlari va psixologiyasiga qarab dars usullari tanlanadi va o'qituvchi o'ziga xos uslublardan foydalanadi. Shu joyda, juda ko'pchilik o'qituvchilar chalkashtirib ishlatadigan darsning metodi, usuli va uslublari to'g'risida fikr bildirmoqchiman.

"Metod" yunoncha so'z bo'lib, "usul, yo'l-yo'riq" degan ma'nolarni anglatadi (uslub emas). Pedagogik adabiyotlarda "Metod — ta'lim jarayonida taqdim etilayotgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmuyi", deb ta'riflanadi. Demak, metodni uslub, metodistni uslubchi, metod kabinetni uslubiyat xonasi, metodbirlashmani uslubbirlashma deb atash mantiqan noto'g'ri ekan. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Atamashunoslik qo'mitasi til komissiyasining "Til — daryo" deb nomlangan izohli lug'atida "Metodika — metodika (yunoncha methodos — tadqiqot, ta'limot). Bu termin ko'pincha "uslubiyat" tarzida noto'g'ri qo'llanadi. Uslubiyat — stilistika. Metodika esa pedagogika fanining o'qitish qoidalari va metodlari haqidagi bo'limi. Demak, "uslubiyat" so'zining metodikaga hech qanday aloqasi yo'q", deb talqin qilinganligini eslatib o'tmoqchiman.

Dars metodlari shartli ravishda 3 ga bo'linadi: an'anaviy, no'an'anaviy va zamonaviy. Har bir metod og'zaki, yozma va ko'rsatmal-amaliy usullarda olib boriladi.

Dars usullari deb, darsni samarali olib borish uchun qo'llaniladigan ta'limiy tadbirlar yoki o'quv jarayonini amalga oshirishda qo'llaniladigan uslublar sistemasi aytiladi. Dars usullarining son-sanog'i ko'p. Masalan, no'an'anaviy dars metodlari hisoblangan interaktiv dars usullari: "bahs-munozara", "kichik guruhlarda ishlash", "o'zaro savol-javob", "bir-birini o'qitish", "aqliy hujum", "muzyorar", "klaster", "sinkveyn", "zigzag", "charxpalak", "zanjir", "bumerang", "kimoshdi savdosi", "videotopishmoq", "to'rtinchi

ortiqcha", "kuzatish, bahslashish, ishontirish", "chaqirish, anglash, fikrlash", "sportloto o'yini", "kubik o'yini"... va boshqalar shular jumlasidandir.

Dars usulbi deb, dars maqsadlariga erishishda paydo bo'ladigan muayyan to'siqni yengib o'tish uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan chora-tadbirlar, harakatlar majmuasiga aytiladi. Uslub rus adabiyotlarida pedagogik "priyom" deb qaralgan. Uslub har bir o'qituvchining o'ziga xosligidir. Ikki o'qituvchi bir xil usulni, masalan "aqliy hujum" usulini har xil uslublarda amalga oshiradi. Bolalarni darsga jalb qilish uchun bir o'qituvchi muloyim, past ovozda gapirsa, ikkinchisi baland ovozda, baqirib gapiradi. Birovi rivoyat aytib bersa, boshqasi tanbeh beradi, po'pisa qiladi. Mana shu har xillik uslub deyiladi. Uslubni dars konspektiga yozib bo'lmaydi, u dars jarayonida paydo bo'ladi.

Bugungi kun bolalarini qoyil qoldirish ancha mushkul. Shuning uchun o'qituvchi tinib-tinchimasligi, innovatsion, no'an'anaviy, interaktiv dars usullarini muntazam o'qib va o'rganib borishi hamda o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qila olishi zarur. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning badiiy, estetik, mantiqiy, jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga alohida e'tibor berishi kerak. Bir darsda o'quvchi ham ko'rsin, ham tinglasin, ham gapirsin, ham mushohada qilsin, ham yozsin. Pedagog-psixologlarimizning o'tkazgan tahlillariga ko'ra, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar 2 hafta o'tgach, mustaqil o'qish orqali 10 foizi, tinglash orqali 20 foizi, ko'rish orqali 30 foizi, o'zi namoyish etsa yoki so'zlab bersa 50 foizi, bahs-munozara, suhbat orqali 80 foizi, o'zi amaliy bajarganda esa 90 foizi eslab qolinar ekan. Shularni hisobga olsak, o'quvchilarga dars berishda ko'proq bahs-munozara, suhbat va amaliy ishlarni dars davomida o'z kuzatuvimiz va nazoratimiz ostida olib borishimiz kerak ekan.

Xulosa qilib aytish mumkin, dars o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vositasi va o'qituvchi faoliyatining yadrosidir. Shu sababli darsni zamonaviy talablarga javob beradigan, samarali qilib tashkil etish biz pedagoglarning asosiy burchimidir. Bu burchni halol va vijdonan bajarish uchun bor ilmimizni, bor mahoratimizni, bor kuch-g'ayratimizni ayamaylik. Toki, farzandlarimiz Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan barkamol shaxslar bo'lib yetishsin!

Nurxon BEKNIYOZOV,
Davlat test markazi Navoiy viloyati bo'limi boshlig'i

Yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, jamiyatda o'qituvchilar nufuzini oshirishga alohida ahamiyat berilayotgan bir vaqtda oramizda o'z kasbiy mas'uliyatini unutilib qo'ygan, o'qituvchi nomiga dog' tushirib kelayotganlar ham borligi juda achinarli.

Qing'ir ishning qiyig'i...

Oliy ma'lumotli yosh o'qituvchi Yo'lchi Kimsanovga (ism-familiyasi o'zgartirilgan) o'zi ishlab kelayotgan umumiy o'rta ta'lim maktabiga vaqtincha rahbarlik qilish vazifasi ishonib topshirildi.

Yo'lchi Kimsanovning oldida ikki yo'l bor edi, ya'ni ushbu imkoniyatdan foydalanib, bilim va salohiyatini har tomonlama namoyon qilish, vazifasidagi "vaqtincha" qo'shimchasini "doimiy"ga o'zgartirish yoki ushbu "imkoniyat"dan foydalanib, moddiy naf ko'rish.

Afsuski, Yo'lchi Kimsanov ikkinchi yo'lni tanladi. Oyog'i yerdan uzilib, bosar-tusarini bilmay qoldi. O'z manfaatini ustun qo'yib, zimmasidagi mas'uliyatni boylik to'plash uchun imkoniyat deb hisobladi. Ana shu badnafi uni sudning qora kursisiga yetaklab keldi.

Jumladan, Yo'lchi Kimsanov tumandagi boshqa umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchi bo'lib ishlab kelayotgan Banora Hafizova bilan tanishib qolib, unga o'zi vaqtincha rahbarlik qilayotgan maktabda direktor o'rinbosari vazifasi bo'sh ekanligini, ozroq "xarajat" evaziga uni ushbu lavozimga joylashtirib qo'yishi mumkinligini ma'lum qilib, bu "xizmati" uchun undan 400 AQSh dollari so'raydi.

Biroq Kimsanovning harakatlari noqonuniy ekanligini yaxshi anglagan Banora Hafizova huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimlariga ariza bilan murojaat qiladi va uning arizasiga asosan tezkor tadbir o'tkaziladi.

O'z harom luqmasini kutayotgan Yo'lchi Kimsanov tezkor tadbir davomida Banora Hafizovadan 400 AQSh dollarini olgan vaqti ashyoviy dalillar bilan qo'lga olinadi.

Endigina 30 yoshga kirayotgan oliy ma'lumotli o'qituvchi unga berilgan imkoniyatni suiiste'mol qilib, o'z yaqinlari va ota-onasining yuzini yerga qaratdi, ularni "o'g'lim maktab direktori" deb, g'ururlanib yurish baxtidan mahrum qildi.

Mazkur jinoyat ishi tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va shu orqali sodir qilinishi mumkin bo'lgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida barcha maktab direktorlari va keng jamoatchilik ishtirokida ochiq sayyor sud majlisida ko'rildi.

Sudning hukmiga ko'ra, Yo'lchi Kimsanov O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 168-moddasi 3-qismining "v" bandi (xizmat mavqeyidan foydalangan holda fribgarlik bilan o'zganing mulkini qo'lga kiritish) va 28, 211-moddasining 1-qismi (pora berishga dalolat qilish) bilan aybli topilib, Jinoyat kodeksining 59-moddasi (bir necha jinoyat uchun jazo tayinlash), tartibida, uning aybiga iqrar va pushaymonligi, yoshligi, ilgari sudlanmagani, Yoshlar ittifoqi tomonidan berilgan kafillik xati e'tiborga olinib, 1 yil 6 oy muddatga moddiy javobgarlik va mansabdorlik vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilingan holda, 5.068.250 so'm jarima va 2 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

Bundan tashqari, jinoyatning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar kelgusida takrorlanmasligi uchun xususiy ajrim chiqarilib, tuman xalq ta'limi bo'limi boshlig'i e'tiboriga havola qilindi.

Shu o'rinda, har birimiz zimmamizdagi mas'uliyatni vijdonan bajarishimiz, yosh avlodni dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalardan to'g'ri xulosa chiqara oladigan, o'ziga yurtaga sadoqat tuyg'usi bilan yashash va O'zbekiston fuqarosi degan sharafni nomga har tomonlama munosib bo'ladigan ruhda tarbiyalash barchamizning muqaddas burchimiz ekanligini unutmashimiz lozim.

Shahzod BAXTIYOROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Qashqadaryo viloyati sudi sudyasi

2020-yil — Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili

Raqamli iqtisodiyot odimlari

Ayni paytda ushbu atamani butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar o'z faoliyatida qo'llab kelmoqda. 2016-yili Jahon banki dunyo bo'yicha raqamli iqtisodiyot holati haqidagi hisobotni taqdim qilib, "Raqamli dividendlar" ma'ruzasi bilan chiqish qildi.

Raqamli iqtisodiyot bu — siyosiy-iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim. Raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilarini yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvini sifatli amalga oshirishning mavjudligi, buxgalterlik, auditorlik va boshqaruv tizimlarining o'zaro elektron integratsiyalashuvi, ma'lumotlarning elektron bazalari, CRM(mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi, turli xildagi korporativ tarmoqlardan iborat bo'lib, qulayliklariga esa har xil to'lovlar uchun xarajatlarning qisqarishi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejalandi), tovarlar va xizmatlar haqida juda ko'p operativ ma'lumotlarga ega bo'lib, ularni jahon bozoriga olib chiqish imkoniyatlarini kengayishini kiritish mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiyotdan farqiga izoh beraylik. Masalan, xaridorga qandaydir mahsulot yoki xizmat

turi kerak. Uni bozorga tushib, o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu — an'anaviy iqtisod. Internet tarmog'idagi biror-bir elektron savdo maydonchasidan yoki telegramdagi biron savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olishga — raqamli iqtisodiyot deyiladi. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanib kelmoqdamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lovlar yordamida kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi hamda hisobotini topshiramiz, kartadan kartaga

pul o'tkazamiz, uyimizga yoki ishxonamizga taom buyurtma qilamiz va hokazo. Keyingi yillarda internetdan foydalanish bo'yicha shahar va qishloqlar o'rtasidagi tafovut yo'qolib bormoqda. Mobil internet tobora rivojlanmoqda.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini bir necha barobar oshirib, mamlakat milliy xavfsizligi hamda mustaqilligini ta'minlovchi asosiy indikator ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, aholi turmushini keskin yaxshilash orqali raqamli iqtisodiyot korruptsiya va "yashirin iqtisodiyot" ildiziga bolta uradi. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va

” Internet tarmog'idagi biror-bir elektron savdo maydonchasidan yoki telegramdagi biron savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olishga — raqamli iqtisodiyot deyiladi.

O'qituvchi minbari

Ta'limga yangicha yondashuv kerak

Mustaqillikning dastlabki yillari ta'limni isloh qilish bahonasida maktab darsliklarini batamom yangilash borasida ko'p, kechirib bo'lmay xatoliklarga yo'l qo'yildi. Ijtimoiy fanlar — "Adabiyot", "Ona tili", "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi", "Geografiya" singari darsliklar yangilanishi kerak edi. Shoshma-shosharlik bilan bu vazifa uddalandi. Lekin o'z davrining yetuk darsliklari bo'lgan aniq fanlar — "Fizika", "Arifmetika", "Algebra", "Geometriya", "Biologiya", "Kimyo", "Zoologiya", "Botanika" kabi darsliklar qoldirilishi kerak edi. Ular ham shoshma-shosharlik bilan qayta tayyorlandi.

Afsuski, yangi darsliklar mazmun va talab jihatdan o'zidan oldingi darsliklardan ancha sayoz darajada ishlab chiqildi. Shu bilan birga, bu darsliklarni chop etish uchun juda katta miqdordagi mablag' shamolga sovrildi. Bu kamchilikni to'g'irlashga hali-hanuz olim-u muallimlarning kuchi yetmayapti.

Bugungi maktab muallimi zamonaviy ta'lim darajasini belgilashda hozirgi zamon bolalaridan bir qadam oldinda bo'lishi uchun o'z ustida tinmay izlanishi, chet el tajribasi, o'zimizning milliy an'analarimiz, qadriyatlarimizni e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya sifatini yuqori darajaga ko'tarishi kerak. Bolalarda fanlarga qiziqishni, istak-xohishni uyg'otmasdan turib, zo'rma-zo'raki ta'ziyalar bilan ta'lim berish uslubi allaqachon umrini o'tab bo'lgan.

Hozirgi maktab o'quvchisi bundan 40, 50 yil ilgari avlodlardan tubdan farq qiladi. Negaki, u zamonlarda texnika unchalik rivojlanmagan, qo'l telefonlari yo'q,

internet yaratilmagan, kompyuterlar endi quloqqa chalinayotgan davr edi. Hatto televideniye ham bugungi darajada rivojlanmagan edi. Bolalarning bo'sh vaqti faqat kitob mutolaa qilish, ahyon-ahyonda kinozallarga borib kino tomosha qilish bilan o'tardi.

Bugun ko'pchilik bolalarni maktablarda oldingiday yaxshi o'qitishmayapti, deb ayyuhananos solishadi. Muammoning asl mohiyatini chuqur o'ylamasdan gapirish oson. Lekin bugungi bolaning tasavvuri, dunyoqarashi, qiziqishi ota-bobosining yoshlik davridan tubdan farq qiladi. Ularni o'qishdan chalg'itayotgan, fikrlarini o'g'irlayotgan zamonaviyot usurlari bir tomondan taraqqiyotga xizmat qilsa-da, ikkinchi tomondan yoshlarni ilm olishga yengil-yelpi yondashishga, asl manba — kitoblardan chalg'itib, internetdan tayyor materiallarni ko'chirib olib, topshiriqlarni osongina, bosh qotirmay bajarishga o'rgatib qo'ymoqda. Bu esa, o'z navbatida, bolaning o'qishga qiziqishini, kitobga mehrini

so'ndirayotir. Shu sababli bugungi o'qituvchi maktab ta'limida o'quvchiga yondashuvni tubdan o'zgartirishi, birday qolipga tushib qolmasligi, ilgariidan kelayotgan, hammaga birdek uslubiy qo'llanmalardan voz kechib, batamom yangicha individual samarali usullarni amalda qo'llashi kerak.

Ta'lim sifatini dunyoviy darajaga yetkazish uchun ta'lim sohasida ulkan muvaffaqiyatga erishgan Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya singari davlatlarning tajribasini o'rganishimiz lozim. Masalan, o'tgan asrdagi eng mash'um urushdan so'ng Yaponiya iqtisodini ko'tarish uchun investitsiyaga emas, balki birinchi galda ta'lim-tarbiya va ilm-fanni rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Shu sababli bu davlat tiklanibgina qolmay, balki dunyoda eng taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rin oldi. Biz ta'lim-tarbiya sohasidagi korruptsiyani tag-tomiri bilan yo'qotib, tamagirliklarga chek qo'yib, ta'lim tizimini mustahkam

sohaga aylantirishimiz kerak. Bu borada Prezident maktablari tashkil etilib, dastlabki tamal toshlari qo'yildi.

Hozirgi kunda o'quvchilar fikr-u xayolini darslarga muntazam qatnab, davomatni joyiga qo'yib, maktabni bitirib, attestat olsam bo'ldi, qolganini repetitora borib uddalayman degan tushuncha egallab olgan. Menimcha, endilikka o'qituvchilar ta'lim-tarbiyada yoshlarni oliy ta'limga tayyorlash masalasini chuqur o'ylab ko'rishlari kerak. Oliy ta'limga kirishning test savollarini maktab o'qituvchilarning o'zlarida ham sinovdan o'tkazish lozim. Gohida OTMga kirish test sinovlari o'ta murakkab bo'lib, abituriyentlarning emas, balki ularga maktabda ta'lim bergan usulovlarini, hatto qilni qir yoradigan repetitor o'qituvchilarni ham esankiraytib qo'ymoqda. Bunga 2019-2020-o'quv yili uchun tibbiyot sohasi bo'yicha OTMga kirayotgan abituriyentlarning kimyo fanidan topshirgan test sinovlarini misol keltirish mumkin. Bu fan savollari ijtimoiy tarmoqlarda ancha-muncha shov-shuvli bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bu voqeani eslaganimda O'zbekiston Milliy universitetining tanqiloli olimi "zangori ekran" orqali chiqish qilib: "Bu test savollarini tuzganlarning bolalari bo'lmas kerak", degan fikri esimga tushdi. Juda to'g'ri aytilgan gap.

tizimligi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada mablag'larni o'g'irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko'rsatish imkoniy qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag'lar kelishi oqimini oshiradi, soliqlar o'z vaqtda va to'g'ri to'lanadi, budget taqsimoti ochiq bo'ladi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar o'g'irlanmaydi, maktablar, shifoxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq yetib boradi va hokazo. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, bizni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat — korruptsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir.

2030-yilgacha axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan raqamli iqtisodiyot ulushini mamlakat yalpi ichki mahsulotida hozirgi 2 foizdan 10 foizga ko'tarish kelajakdagi strategik vazifalarimizdan biridir. Buning asosida ishlab chiqilayotgan "Raqamli O'zbekiston — 2030" dasturidagi masalalarni tezlik bilan amalga oshirishga qattiq e'tibor qilinib, fikrimizcha, yaqin kelajakda "Raqamli O'zbekiston" to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi raqamli iqtisodiyotga faol o'tishning kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalari samarali bajarilishiga to'laqonli xizmat qilib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tub burilishga qonuniy asos bo'ladi, deb hisoblaymiz.

A.KENJABOYEV,

U.YOQUBOV,

Toshkent moliya instituti

"Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot" kafedrasida professor-o'qituvchilari

Meni yana bir muammo anchadan beri qiynaydi. Biz Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, At-Termiziy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarning avlodlarimiz deb faxrlanib yuramiz. Axir, shunday ulug' ajdodlarimizga bugungi avlod munosib izdosh, voris bo'layotimi, deb hech o'ylaganmiz? Ayniqsa, Rossiyada ishlayotgan migrantlarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ruscha so'zlashuvlarini ko'rib, eshitib tepa sochimiz tikka bo'lyapti. Ularning savodsizlaricha aytayotgan so'zlari nimadan darak beryapti? Hali ham qishloq maktablarida o'qitish tizimi o'ta past darajada. Ko'pchilik maktablarda rus tili nomigagina o'qitilmoqda.

Bir muallim sifatida o'zimizni qiynayotgan ayrim muammolarni o'rta ta'limda hamda endilikka majlisbozlik, buyruqbozlik, tekshir-tekshirlar bilan o'quvchilarni ovora qilish hamda 30-40 bolani bir sinfga jamlash bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Muallimlarga ham erkinlik berish kerak. Ta'lim-tarbiyaga individual yondashish lozim. Har bir ustoz o'z mahorati, imkoniyatini amalda namoyish etsin, haqiqiy fidoyi bo'lsin. Buni endi ko'pchilik tushunib yetdi.

Ha, maktablarimiz zamonaviy talablar asosida shakllanmoqda. Dolzarb vazifalar qo'yildi. Endi o'qitishni ham, ta'lim-tarbiyani ham zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish vaqti keldi.

Nodira RAZZOQOVA,
Toshkent shahridagi
97-maktab o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi

Mamlakatimiz ta'lim maskanlarida 7s tilda saboq beriladi. Xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda TOEFL, IELTS, TOPIC kabi baholash sinovlari yo'lga qo'yilgan. Bu esa maktab o'quvchilarining chet tillarni, xususan, ingliz tilini yanada yaxshiroq va mukammal o'qib-organishiga imkoniyat yaratmoqda.

“Takrorlash bilimlarning onasidir”

Endilikda faqat doska va bo'r bilan dars o'tish usuli eskirdi. Bugun interaktiv doskalarda o'quvchining o'zi zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ishlagan mashqlarini ko'rsata olish imkoniyatlari mavjud.

“Takrorlash bilimlarning onasidir” degan gap bor. Shuning uchun, o'quvchining dars davomida olgan bilimlarini to'garaklar yordamida yanada mustahkamlaymiz. Odatda to'garaklarga a'lochi o'quvchilar qiziqishadi. Ammo o'qituvchi faqat iqtidorli bolanigina emas, barcha o'quvchini to'garaklarga qamrab ola bilishi kerak. Bunda muallimning tajribasi qo'l keladi. Misol uchun, to'garak mashg'ulotlarida qo'llaniladigan tinglash va takrorlash mashqlari o'quvchilar uchun ham qiziqarli. Bu mashqlarda ko'pincha yangi so'zlarni rasmlar bilan solishtirish yoki so'z birikmalarining ma'nosini bilib olish muhim sanaladi. “Zanjir” mashqi tez-tez ishlatiladi, mashqda har bir o'quvchiga yangi til materiali yoki qurilmani ishlatib ko'rish imkoni beriladi. Avval o'quvchilar yangi material bilan tanishadi, keyin harakat yordamida bajarib ko'rishadi. Masalan, *I Like drawing. What about you?* O'qituvchi o'zi uchun javob beradi va shu savolni (*What about you?*) so'raydi. O'quvchi o'zi uchun javob beradi va yana bir mashq qilib ko'radi, boshqalar esa kuzatib tinglashadi. Bu juftlik mashqi hisoblanib, A o'quvchi rasmdagi narsani ko'rsatadi, B o'quvchi esa rasmini ifodalovchi so'zni aytadi. Shundan so'ng ular navbat almashadilar.

Shu o'rinda aytish joizki, ingliz tili fani yoki boshqa fanlarda ham darsni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar yo'q emas. Ular uchun alohida to'garaklar mavjud. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash to'garagida sinfdagi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchini aniqlab, qiyin bo'lgan mavzularni qayta takrorlash alohida ahamiyat kasb etadi. Agarda ular bilan ham mukammal shug'ullansak, darslardagi ishtiroki faollashadi, fanga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ijodiy ishlarini dastlab devoriy gazetalarda, keyinroq mahalliy matbuotda, turli xil tadbirlarda ko'rsatishimiz mumkin. Bunda o'quvchi mehnatidan zavqlanadi.

M.TO'XTANAZAROVA,
Chortoq tumanidagi
48-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

Aqliy jihatdan rivojlangan iqtidorli bolalar maktabda ham, uyda ham bir qancha to'siqlarga uchraydi. Boladagi o'ziga xos qobiliyat yuzaga chiqqanda ota-onalar hamda oiladagi katta a'zolar o'zlarini qanday tutishi muhim ahamiyatga ega.

Ayrim paytlari ularni mukammal narsalar bezovtalantiradi: bola uydagi barcha kitoblarni o'qishi, topshiriqlarni bajarish bilan band bo'lishi, bolani qandaydir bir qurilmalarni tuzatishdan ajrata olmaslik... Shunday vaziyatlarda maktab amaliyotchi psixologi iqtidorli bolalarda, informatsion va intellektual stresslarni yengillashtirishda yordam beruvchi mashqlarni tez-tez o'tkazib turishni tavsiya qiladi.

Katta sayohat (asosiy mashq): ko'zingizni yuming va o'zingiz uchun qulaylik yara-

ting. Tanangiz to'liq yengillashishi uchun bir necha daqiqa ajrating. Dastlab tanangizning erkin va batartib bo'lishiga urining. Uning yengillashishiga imkon bering. Bir qancha vaqt uni kuzating, tanangiz bunga javoban nima der ekan. Diqqatingizni qo'ldagi, yelkadagi, beldagi, boshdagi, qorin, oyoq, shuningdek, ko'krak qafasi va kurakdagi jismoniy sezgilarga yo'naltiring.

Diqqatingizni sekin-astalik bilan nafas olishingizga ko'chiring. Nafas olganingizda dimog'dan o'tayotgan havo

Ta'lim-tarbiya berishga kim mas'ul?

Uzoq yillik o'rganishlar natijasida shu narsalar aniqlandiki, bola qobiliyatini yo'q qiluvchi holatlarga quyidagilar kiradi:

1. Har safar yuzga urish natijasida miyadagi 300-400 hujayra nobud bo'ladi. Boshni silash esa miyada yangi hujayralarni paydo qiladi.

2. Elektron o'yinlar ijtimoiy aqlni, lug'aviy ziyraklikni barbod qiladi. Haddan ortiq e'tibor qaratilganidan miyaga qon quyilishiga, miya hujayralarining barvaqt halok bo'lishiga sabab bo'ladi. Yoshi ulg'ayganda unda mahorat, tajriba yetishmaydi.

3. Onani farzandi oldida haqorat qilish bolani qo'rqoq, tortinchoq qilib qo'yadi, sog'lom fikrlashdan to'xtatadi.

4. Bolaning fikrlari ustidan kulish, u bajargan ishlarni taqdir-lamaslik natijasida undagi moti-vatsiya pasayib ketadi.

5. Bola bilan tez-tez suhbat qurish lozim. Agar shunday qil-masangiz undagi so'z boyligi va ijtimoiy zehn yo'qolib boradi.

Bolaning gapiga ahamiyat bermaslik, uni jim turishga buyurish, ba'zi hollarda qattiq inkor qilish oqibati yaxshilikka olib kelmaydi.

6. Ta'lim berish davomida suv ichishni kamaytirmaslik kerak. Miyamizning 85 foizi suvdan iborat. Har 45 daqiqada bir stakan suv ichish zarur. Busiz tana g'ayriixtiyoriy (yo'tal, aksa urish, stolni qimirlatish, stolni surish kabi) harakatlar qila boshlaydi.

7. O'quvchining qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olmay o'qitish samarali natija bermaydi.

8. Bolani dastlabki bosqichda mayda harflarda yozishga majburlash yaxshi emas. Katta yozuv o'ziga ishonch va erkinlik belgisi hisoblanadi. Agar yozuv kichik bo'lsa, buning sababi ana shu ikki sifat(o'ziga ishonch va erkinlik) ning yo'qligidir.

Milliy pedagogika xalqimizning ma'naviy boyliklaridan

biri bo'lib, u tarbiyaning maqsad va vazifalarini, shaxs kamolotini rivojlantirishda muhim yo'nalishlarni ifoda etuvchi bir qancha vositalarning majmuyidir. Chunki unda xalqning avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan tajribalari va pedagogik bilimlari jamlangan.

Ijtimoiy tarmoqda bir postga ko'zim tushib qoldi:

Ota: — O'g'lim, qadam bosayotgan joyingga ehtiyot bo'l.

O'g'il: — O'zingiz ko'proq ehtiyot bo'ling, ota. Chunki men sizga ergashaman.

Ha, bu ikki og'iz jumladan ota-ona bola tarbiyasiga naqadar mas'ulligi ochib berilgan. Hurmatli ota-onalar, farzandingiz tarbiyasiga e'tibor bering! Zero, maktabda pedagogning bergan tarbiyasi farzandning uyida oladigan tarbiyasiga yetmaydi.

Surayyo MAMATOVA,
Qo'qon shahridagi
7-maktab direktorining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha o'rinbosari

Taklif

“O'quvchi va qonun” sinflari

Qonun va huquqni bilgan har bir yoshda jinoyatchilikka qarshi immunitet hosil bo'ladi. O'quvchilarga boshlang'ich sinfdan boshlab huquqiy bilimlar berish maqsadida “O'quvchi va qonun” sinflari tashkil etish orqali huquq sohasiga ixtisoslashgan o'quvchilar tayyorlash g'oyasi taklif etilmoqda.

Tajriba sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda Andijon shahridagi

41-maktabda shunday sinf ochildi. Sinf huquqiy adabiyotlar va ko'rgazmalar bilan boyitildi. Ilk dars sud sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar tomonidan o'tildi. Dars soati uchun “O'zbekiston yoshlari jinoyatchilikka qarshi kurashadilar!” mavzusi tanlandi. Dars soatida huquqiy ongi shakllanmaganligi bois jinoyatchilik yo'lga kirib, panjara ortiga tushgan yoshlarning pushaymonlari aks etgan videorolik namoyish etildi. Kelgusida mazkur tajriba orqali “Huquqshunoslar maktabi” tashkil qilish bo'yicha yangi loyiha ishlab chiqish ustida ish olib borilmoqda.

Mohidilxon OTAXONOVA,
Buloqbochi tumanidagi
24-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Katta sayohat

(intellektual stresslarni yengillashtiring)

qanday sezgini keltirayotganiga e'tibor qaring. Nafas-ingizning xotirjam va ancha tekis bo'lishiga harakat qiling. Uning yengil va tabiiy kechishiga erishing. Agar boshingizga har xil chalg'ituvchi fikrlar kelsa, ulardan diqqatingizni tanangizga yo'naltirishga yordam beruvchi sifatida foydalaning. Shu tarzda idrokingizni yana tanangizdagi tuyg'ularga to'g'irlang. O'zingizni to'liq yengillashtirish uchun iliq tuyg'uni vujudga keltiring. Sezgilaringizning yangi tuyg'ular hosil qilishiga erishing.

Harakatsiz turing, bu esa

yuragingiz urishini eshitishga imkon bersin.

Ongingiz har bir nafas olgan-da erkinlashadigan bo'lsa, u holda uni tanangizning biron a'zosi yengillashtirishga yo'naltiring.

Dastlab yuz ifodangizni tasavvur qiling. Ko'zingiz, labingiz, iyak va peshonangiz qandayligini tasavvur eting.

Diqqatingizni yuz-qiyo-fangizga yo'naltiring, undagi zo'ri-qishlarni kuzata oling. Alohida timsollar orqali yuzdagi zo'ri-qishlardan xalos bo'lishga erishing.

Yuzingiz to'liq yengilla-sha boshlasa, diqqatni bo'yin,

yelka, qo'l va barmoqlarga ko'chiring.

O'zingizning va tanangizning har bir a'zosini batartiblashgan va yengillashtirish tarzda tasavvur qiling. Qanchalik fikriy timsollar o'z o'mini topsa, shunchalik chuqur bo'shanish yuz beradi.

Fikran o'z tanangiz, ko'krak, bel, qorin, oyoqlar, tizzalar va oyoq barmoqlariga nazar solib ko'rishni davom ettiring. Shoshish kerak emas, tanangiz bo'yab qilingan sayohatdan huzur oling va yengillashtiring.

Ushbu mashq bajarib bo'lingandan so'ng guruh a'zolarining mulohazalari tinglanadi va ular-da ruhiy yengillashtirish va diqqatni boshqarishdagi o'zgarishlar bo'yicha xulosaga kelinadi.

Muhayyo RAJABOVA,
Urganch shahridagi
24-ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lim maktabning
amaliyotchi psixologi

Bu zahmat ortida saodat bor

To'laqonli rivojlangan, insonparvar jamiyatda nogironlar o'zlarini oqiz sana-maydi, sog'lom insonlardan qolishmaydigan sharoitda o'qiydi, o'z oldiga maqsad qo'ya oladi va ularga erishish yo'lida o'z-o'zi, jismoniy kamchiligi bilan kurashadi hamda barcha qiyinchiliklarni yengib, maqsadga erishadi.

Albatta, buning uchun unga sharoit, g'amxo'r insonlar suv va havodek zarur. Yurtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishga xizmat qiluvchi maxsus yordamchi maktablar ham faoliyat yuritadi. Mazkur maktablarning faoliyati umumta'lim maktablarinikidan ancha farq qiladi. Ayniqsa, unda faoliyat yuritayotgan pedagoglar ko'proq mehnat va mashaqqatga bardosh berishlariga to'g'ri keladi.

Yunosobod tumanidagi 87-maxsus yordamchi maktabda bo'lib, u yerdagi bolalar holati, dars jarayonlari, o'qituvchilar faoliyati bilan tanishdik. Mazkur maktabda oligofren, ya'ni aqliy rivojlanishda nuqsoni bor 221 nafar bolaga 56 nafar oliy ma'lumotli defektolog-o'qituvchi ta'lim beradi. Maktab 2018-yili homiylar tomonidan kapital ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Bugun unda imkoniyati cheklangan o'g'il-qizlarni tarbiyalash, hayotga tayyorlash uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Maktab rahbari Gulira'no Azimova maskanda 35 yildan buyon faoliyat yuritadi.

— Umrin shu maktabda o'tdi, — deydi u. — Nuqsoni bo'lsa-da, bu bolalar hayotim mazmuniga aylangan. Ularda yashashga, maqsad sari intilishga harakat va ishtiyoqni shakllantira olsak, bundan olam-olam zavq olaman. Bu bolalar majruh bo'lsa-da baxtga, yaxshi hayotga haqli deb o'ylayman.

Gulira'no Azimova maktabda tarbiyachilikdan ish boshlaydi. Keyinchalik boshlang'ich sinflarga, undan so'ng yuqori sinflarga dars beradi. U chin insoniy qalbiga quloq tutib mehnat qildi. Bu bolalar hayotda o'z o'rnini topishiga umr bo'yi astoydil harakat qildi.

— Aksariyat o'quvchilarimiz maktabga juda yomon ahvolda keladilar. Ularni hatto o'z ota-onalari ham eplashga qiyalishadi, — deydi maktab direktori. — Shuning uchun biz o'qituvchilarni malakasiga jiddiy e'tibor qaratgan holda ishga qabul qilamiz. Maktabimizda 1-sinfdan 10-sinfgacha bo'lgan bolalarga matematika, ona tili, o'qish kabi fanlar faqat boshlang'ich sinf darajasida o'rgatiladi, murakkab fanlarni bu bolalar qabul qilish imkoniyatiga ega emas, shu bois ularga kasbiy mehnat chuqur o'rgatiladi. Dastlabki to'rt yilda bolalar qo'l mehnatini o'rganishadi. 5-sinfdan kasbga yo'naltirila boshlanadi.

Maktabda tikuvchilik, qandolatchilik, sartaroshlik, duradgorlik, zargarlik kabi yo'nalishlarda yuqori sinf o'quvchilarga chuqur saboq beriladi. Homiylar tomonidan ushbu mehnat xonalari to'la-to'kis jihozlanib, hunar sirlarini o'rganish uchun barcha sharoit yaratib berilgan. Og'ir ahvolda keladigan ko'plab bolalar, bu maskanni 10-sinfda bitirib ketish chog'ida biror hunar egasiga aylanib, hayotiy ko'nikmalari shakllangan holda uchirma bo'ladilar.

— Maktabni bitirib ketayotgan

o'quvchilarimni ko'zim qiymay qoladi, — deydi Gulira'no Azimova. — Ularga qancha mehnatimiz singgan axir. Endi hayotga tayyor bo'lib, o'zini tutishni, o'z qo'llari bilan nimalarnidir yaratishni o'rganganida bizdan ketib qolishadi. Ularning keyingi hayotini o'ylayveraman. Buyog'iga qanday yashaydi? Hayotda o'z o'rnini topib ketarmikan? Bu savollar menga tinchlik bermaydi. Shuning uchun bitiruvchilar orasida harakatchan, salohiyati bor o'quvchilarimning ishga joylashishlariga ham yordam beraman. Bo'lmasa bu mas'uliyat hissidan qutulolmayman. Mana, bir o'quvchim katta sahnalarga chiqib, raqqoslik qilyapti, biri maxsus olimpiadalarda qatnashib, katta natijalarni qo'lgan kiryapti, ayrimlarini sarta-roshlik salonlariga, non pishirish sexlariga ishga joylashtirishga muvaffaq bo'ldim. Hayotda o'z o'rnini topsa, ota-onasiga, oilasiga ozgina yengillik ulashsa, ularning ham hayotida mazmun bo'ladi.

Maktab rahbari o'qituvchilarning mahorati, o'z ustida ishlashi, o'zaro tajriba almashishiga katta e'tibor qaratadi. Zero, bu maskanda faqat bolani seva olgan, uning ruhiyatini yaxshi tushungan, pedagogika va psixologiya asoslarini yaxshi bilgan, sabrli va fidoyi o'qituvchigina ishlab keta oladi.

— Bu bolalar bilan ishlash oson emas, ularni ta'limga jalb etishdan oldin, mehrini qozonish, til topishish kerak, — deydi Gulira'no opa. — Mana shu til topishish masalasining oldida hatto eng bilimli pedagog ham oqiz qolishi mumkin. Bu bosqichda bilimdan ko'ra, tuyg'ular va psixologiya rol o'ynaydi. Shu bois yosh pedagoglarimiz ko'p yillik ustozlarimizga birlashtiriladi. Bu maskanda hamma bir-biriga ish o'rgatadi, tinimsiz izlanadi. O'rgatish — "aql o'rgatish" emas, yordam berish, deb qabul qilinadi. Shunday tartibda o'qituvchilarimiz bolalar uchun onadek aziz insonga aylanadilar. Shunday bolalarimiz borki, ularni biror ishga ko'ndirish uchun ota-onalari ustozlaridan yordam so'rashadi. Ustozning bunday darajaga chiqishi juda yuksak mavqe. Men shunday ustozlarimizdan doim faxrlanam.

Muassasani ko'zdan kechirib, o'quvchilarni mashg'ulot xonalarida uchratdik. O'z qo'llari bilan yaratish harakatida ishlayotgan, yozishni o'rganayotgan, sog'lomlashtirish xonasida o'z ustida ishlayotgan bolalarning ustozlari birma-bir yo'l-yo'riq ko'rsatib turganiga, ularni jamiyatning kerakli kishisiga aylantirishga astoydil harakat qilayotganiga guvoh bo'ldik.

Maktabdan olgan taassurotlar beixtiyor kishiga "Zulmat" nomli hind filmi yodga soladi. Film nogiron qizni zulmat og'ushidan yorug'lik sari olib chiqqan ustozning chekkan zahmatlari evaziga qanchalik katta saodat borligini tomoshabiniga anglatganidek, biz ham bu maskan muallimlarining faoliyati zamirida ana shunday savobli saodatni ilg'agandek bo'ldik.

Zilola MADATOVA

Gazeta va gazetxon

Attestatsiya haqqoniy o'tarmikan?!

"Ma'rifat" gazetasining 2020-yil 4-mart sonidagi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bo'lim boshlig'i Safarali Hamroyev bilan suhbatni o'qib, hamkasblar fikrlashdik. Suhbat davomida attestatsiya jarayonlari borasida o'tgan yillarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va hozirgi qulaylik haqida to'liq ma'lumot berilgani manzur bo'ldi. Biz ham yaqin kunlarda o'z arizamizga muvofiq oliy malaka toifasini olish uchun test sinovi topshiramiz.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan onlayn repititorlikning yo'lga qo'yilgani biz o'qituvchilarga qulay imkoniyat bo'ldi. Sinovlar oldidan bu yil xolislikka qanchalik e'tibor qaratiladi, degan savol kishini o'ylantiradi. Buni esa jarayon davomida bilib olamiz.

Lekin test savollarining aniq va to'g'ri tuzilganligi bahslarga sabab bo'lmoqda. 29-mart kuni Ta'lim inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan boshlang'ich sinflar uchun onlayn-repititorlik testi tarkibida noto'g'ri javoblar ham borligi uchrayapti desak, darslikdagi ma'lumot noto'g'riga o'xshaydi. Aynan quyidagi savolga e'tiboringizni qaratmoqchiman: "Yumshoq bug'doy qachon ekiladi?". 3-sinf "Atrofimizdagi olam" darsligining 2019-yilgi nashrida yumshoq bug'doy kuzda ekiladi, deyilgan. Xalq tilida lalmi bug'doy nomini olgan nav bahorda ekiladi. Shunga asoslanib javobni belgiladik. Bu kabi ma'lumotlar darslikda aniq berilsa yaxshi bo'lar edi. O'qituvchining bilimni baholaydigan eng yaxshi usul bu attestatsiya sinovidir. Bu o'quv yilida test sinovlarining onlayn tarzda bo'li-

shi ham ko'zbo'yamachilik, korrupsiyaning oldi olinganini ko'rsatgandek bo'ldi.

Keyingi paytlar ta'lim sohasida shunday o'zgarishlar bo'lyaptiki, ayrim ishlarni ko'rib suyunishingni ham, kuyinishingni ham bilmay qolasan. Xalq ta'limi vaziri qog'ozbozlikka chek qo'yaylik desa, joylarda buning aksi bo'lyapti. Hamon kafolat xatlarining keti uzilay demaydi. O'qituvchi mehnatini to'g'ri baholaydigan asosiy narsa qog'ozlar emas, dars hisoblanishi unutilib qo'yilmog'da.

Biz ustozlarning bilan suhbatni oshirish borasida qilinayotgan ishlardan, oylik maoshlarimizning oshishidan xursandmiz-u, lekin o'quv rejadagi dars soatlarining qisqarishi bu xursandchiliklarni oqlamayapti. Attestatsiya natijasida yaxshi ball to'plasmam, namunali dars tashkil etolsam, ta'lim va tarbiya rivojiga munosib hissa qo'sha olsam, turli tarbiyaviy tadbirlar tashkil etsam-u, dars soatim kamayib boraversa... bu imtiyozmi, rag'batmi?

Mastura YODGOROVA,
Dilafroz SULTONOVA,
Kosonsoy tumanidagi 24-maktab
o'qituvchilari

Bizning hokimimiz o'zgacha

"Ma'rifat" gazetasida "Qonunbuzar hokimlar" deb nomlangan maqolani o'qib juda ta'sirlandim. Xursand bo'ldim. Ommaviy axborot vositalarida chop etilayotgan tanqidiy-tahliliy maqolalar davlat idoralari mas'ul rahbar xodimlariga yaxshi ta'sir etayotganligi sababli "Ma'rifat" gazetasiga bo'lgan hurmatim yanada ortdi. Shu sabab qo'limga qalam oldim.

Men faoliyat yuritayotgan maktabning sport zali (mahalliy tilda "faqat suyagi qolgan") 15 yildan buyon faoliyat yuritmas edi. Maktabimiz go'zal va qadimiy Shahrisabz shahrining chekka hududida joylashgan. Mazkur 16-umumi o'rta ta'lim maktabi o'z bag'rida 1000 dan ziyod o'quvchiga ta'lim-tarbiya beradi. Quvvati esa 600 o'rinni.

Prezidentimiz ta'lim-tarbiya jarayoniga, pedagoglarga e'tiborni kuchaytirdilar. Shundan ilhomlanib men ham 2019-yildan beri mahalliy davlat idoralariga, jumladan, Shahrisabz shahar hokimligiga bir necha marotaba murojaat qildim. Iltimoslarim yerda qolmadi. Shahar hokimi To'liq Karimov sport zalimizni

to'liq ta'mirlab berdi. Natijada sport zalining tom qismi yopilib, ustki va ichki fasad qismi bo'yaldi. Pol qismi zamonaviy qoplama bilan qoplanib, issiqlik manbasi va panjaralar bilan ta'minlandi.

Endi qishloqda yashovchi yoshlar ham darslardan keyin sport to'garaklariga qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 2020-yilning fevral oyida sport zalimiz foydalanishga topshirildi. Bugungi kunda ayrim tuman hokimlarining ta'lim-tarbiyaga e'tiborsizligini ko'rib turibmiz, lekin bizning hokimimizning qilgan ishi tahsinga loyiq.

Sh. RAHMONOVA,
Shahrisabz shahridagi 16-maktab
direktori

Shahrisabz shahar hokimligiga bir necha marotaba murojaat qildim. Iltimoslarim yerda qolmadi. Shahar hokimi To'liq Karimov sport zalimizni to'liq ta'mirlab berdi.

“Ma'rifat” — ijodkor pedagoglar minbari!

Shaxsiy fikr

1996-yil yangi o'quv yili boshlanishi arafasida Jizzax viloyati Do'stlik tumanida hozirgi "Oltin vodi" qishlog'ida yashovchi aholi o'rtasida: "Qishlog'imizda yangi maktab ochilar ekan, maktabda faqat boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qir ekan", degan gaplar tarqala boshladi.

Boshlang'ich ta'lim maktablari o'zini oqlaydi

O'sha vaqtda tuman xalq ish boshlagandi. Oradan 12 yil ta'limi bo'limi rahbariyati o'tib 2008-yilda maktab kapital tashabbusi bilan tajriba-sinov ta'lim maktabi tez orada kutilgan natijalarni bera boshladi.

Ko'zingizni oching, ayollar!

— O'g'lim, uningga ayt, 5 ta xonani bo'shatib qo'ydim. Gilamning yaxshisidan chet elnikidan olsin. Tag'in pardalaridek arzoni bo'lmasin-a, — dedi ona.
— Axir, oyi, ularning buncha xonani to'ldirishga sharoiti yo'q, — dedi yigit.
— Ey! Sharoiti bo'lmasa qizini boshiga yostiqliksin, — dedi ona. — O'zi shu qizni bekor kelin qildim. Mahalladagilar va qarindoshlar oldida sharamanda qiladi. Hammasi seni deb bo'ldi, shunga uylanaman deb turib olding...
To'y o'tdi. Qaynona kelinning ota-onasi yaxshi sep qilmaganini deyarli har kuni aytib uyda janjal qilaverdi. Nogiron nabirasini qo'lga olganida shifokorlardan sababini so'radi va o'z-o'zini qarq'ay boshladi.

Bugun maktabda 332 nafar o'g'il-qizga 22 nafar tajribali o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Maktabimizda o'quvchilar husnixati, yozish qoidariga katta e'tibor qaratiladi. 80 foiz o'quvchilarning yozuvi bir xilligiga erishilgan. Jamoaning bu boradagi ish tajribasi tuman miqyosida ommalashtirildi. Maktabimizning ko'p yillik faoliyatidan boshlang'ich ta'lim maktablarini tashkil qilish yaxshi samara berishi isbotlandi.

Shoira SAIDQULOVA,
Do'stlik tumanidagi
17-boshlang'ich
ta'lim maktabi o'qituvchisi

Dilfuza KARIMOVA,
Xatirchi tumanidagi
62-maktab o'qituvchisi

Ilm yo'lidagi xarajat — ortiqcha chiqim emas

Ta'limning asosi maktab bo'lsa, uni haqiqiy ziyo maskani qiladigan kuch o'qituvchilardir. Ammo oyda-yilda bitta badiiy asar o'qimaydigan, biror gazeta yoki jurnalga obuna bo'lmaydigan, o'z faniga doir so'nggi yangiliklardan bexabar, faqat darslik bilan chegaralanib qolayotgan muallimlar safimizda yo'q emas.

Oliy ta'lim dargohlarida turli xil dunyoqarashga ega bo'lgan talabalar ilm oladi. Ularning hammasi ham bilimli kadr bo'lib yetishmaydi. Shu sabab maktabga yosh o'qituvchilarni ishga olayotgan rahbar ularning bilimiga e'tibor qaratishi juda muhim. Ta'limdagi son, miqdor tom ma'nodagi sifatga aylanmasa, barcha qilinayotgan sa'y-harakatlar besamar ketadi. Biroq o'z farzandi kelajagi, taqdiri bilan qiziqmaydigan ota-onalar ham muammolarning eng kattasidir. Moliyaviy ahvoli og'ir bo'lgan ota-onalar, farzandlarim kelajakda hech narsaga zoriqmay yashasin, kasb-hunar egasi bo'lsin, biz kabi qiynalib hayot kechirmasin degan maqsadda tirishib-tirmashib farzandining o'qishiga e'tibor qaratadi. Topganini ta'lim olishiga sarflaydi. Bunday ahvoldagi oilalarning farzandi ham ilmga chanqoq bo'ladi, chunki ular oliy ma'lumotli bo'lishim kerak, ta'lim olib ota-onam ishonchini oqlashim, ularni og'ir turmushdan olib chiqishim kerak deb, oldiga katta maqsadlar qo'yadi. Ammo ayrim o'ziga to'q ota-onalar farzandlarining taqdirini o'ziga baholaydi, kelajagini o'zicha o'chaydi. Farzandlariga mashina, so'nggi markadagi telefon sovg'a qilib, to'kis hayot hadya etmoqchi bo'lishadi. Ayrim onalar (otalar chet elda) o'zlarini bechorahol ko'rsatib, otasi uzoqda, farzandimni o'qitishga mablag' yo'q deb noliydi. Vaholanki, o'sha ona har oy dugonalari bilan restoranlarni, go'zallik salonlarini band qilib, otaning pullarini havoga sovuradi. Aytishlaricha, pulning eng savobli va xayrli ota-onaning farzandi ilm olishi yo'lida sarflagani ekan. Axir, ota-onaning farzandiga sarflagan bir so'm puli ertaga o'ziga o'n so'm bo'lib qaytadi-ku!

Xurshida QO'CHQOROVA,
Shovot tumanidagi
45-maktab o'qituvchisi

Ilmsizlik xorlikka yetaklaydi

Ilmga intilgan inson o'z niyatlari, orzu-maqsadlariga erishadi. Bunday insonlar jamiyatga, uning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ular elda aziz bo'ladi. Hurmat qozonadi. Ilmsiz kishi so'qirga o'xshaydi. Bunday ko'zlariga ilmgina nur bag'ishlaydi.

Kuch-quvvat, boylik, mansab-martaba vaqt o'tishi bilan qo'ldan ketishi mumkin. Ilm esa bitmas-tuganmas xazina. U hech qachon tashlab ketmaydi, qadsizlanmaydi. "Ilmi o'zar, ilmsiz to'zar", deb bejiz aytilmagan, axir.

Ta'lim-tarbiya va ilm olishga qiziqish avvalambor oiladan boshlanadi. Shu bois o'qib-o'rganishga ishtiyok uyg'otish uchun farzandlarimizni kitobga oshno etib o'stir-mog'imiz, avvalo, o'zimiz namuna bo'lmog'iz darkor. Har bir oilada mo'jazzina bo'lsa-da, kutubxona bo'lishi ayni muddao. Oilada ham, ta'lim muassasasida ham kitob atalmish sodiq do'stga oshno bolalar ilm nurini diliga jo aylab yuksalaveradi.

Ha, ilm insonni yetuklikka, ko'kka yetaklaydi, ilmsizlik esa tubsiz jarlikka, halokatga, xorlikka. Barcha jumboqlarning kaliti ilm ekanini biz, pedagoglar yoshlarga tushuntirmog'imiz lozim.

Qatra

Kitobxon dugonalar

Nasiba va Umida bolalikdan ajralmas dugonalar. Nasiba ziyoli oilada tarbiyalandi. Ota-onasi esa farzandlari ko'p bo'lishiga qaramay, har biriga muntazam vaqt ajratardi.

Umida bo'lsa, hech narsadan kami yo'q, qo'li uzatgan narsasiga yetadigan tadbirkorning umid bilan asrab olgan qizi edi. Qizlarining ko'ngli nimani tusasa, darrov muhayyo qilishardi. Nasiba esa juda ham odobli, tarbiyali, zukko qiz bo'lgani uchun tezda oliy o'quv yurti talabasi bo'ldi. Umida maktabni arang tugatib, hech qayerda o'qishni istamadi. Ota-onasi tadbirkorlikni taklif qilishdi, u rozi bo'lmadi. Bu orada Umida-ni asrandi ekani oshkor bo'ldi. Umidan-ing ota-onasi har qancha urinmasin, uni uyda olib qolishning ilojini topa olishmadi. Nasiba Umidaning to'g'ri ish qilmagani, ota-ona qanday bo'lmasin uni voyaga yet-

Yetakchi yoshlar qanday tarbiyalanadi?

Tarmoqli biznesning tajribali yetakchisi, olamga mashhur xitoylik marketolog Chen Chjanning "Как мотивировать людей" kitobida shunday ma'lumot keltiriladi: "Adabiyotni o'qish 10 foiz, eshittish 20 foiz, ko'rish 30 foiz, ham ko'rish, ham eshittish 50 foiz, axborot tarkibini muhokama qilish 70 foiz, qabul qilingan ma'lumotni amaliyotda qo'llab, natijasini tahlil qilish esa axborotning 90 foizini eslab qolishga yordam beradi."

Muallifning erishgan yutuqlarini inobatga olsak, keltirilgan ma'lumotlarga tayanib ish yuritib ko'rish yoki fikrlash albatta ziyon qilmaydi. Yetakchilik qobiliyati shakllangan insonlar boshqalarga nisbatan har qanday vaziyatda ham hayotga bo'lgan qiziqishining kuchliligi, muammolarni hal qilishning turli yo'llarini topa olishi, atrofdagilarni ergashtira olishi bilan ustun bo'ladi. Ularda kuchli ichki kuch mavjud bo'lib, oldindagi hayotiy maqsadlariga erishishida yordam beradi. Yoshlarda yetakchilik salohiyatining faollashishi va rivojlanish jarayonini tashkil qilish bo'yicha maqsadli ishlar tizimini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarbdir.

Shaloha RAHMONOVA,
Yunusobod tumanidagi
240-maktab o'qituvchisi

Ayol siymosi Sharq mutafakkirlari nazdida

Oila tarbiyasi shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi asosiy vosita ekan, bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynaydi. Bu borada Sohibqiron Amur Temur bobomizning avlodlariga rafiqqa tanlash borasidagi tajribalari juda katta ibrat namunasi-dir.

Beruniy bobomiz asarlarida ham oila, farzand tarbiyasi muammoli vaziyatlari alohida o'rin olgan. Oila vazifasining asosiy mohiyatini jamiyatga sog'lom shaxslarni tarbiyalab, yetishtirib berish bilan bog'laydi va bunda ota-onalarga qarata bolani mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida oila qurishda kuyov-qayliqlarning nasl-nasabiga e'tibor berish kerak, der ekan, bu omil sog'lom bola dunyoga kelishiga zamin ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy o'zining mashhur "Mabub ul-qulub" asarida ayolning turmushdagi hissasiga quyidagicha to'xtaladi: "Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa — ko'ngil yozig'i, tarbiyali, xushmuomala bo'lsa — jon ozig'idir. Oqila bo'lsa ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. Bunday ayollardan g'o'zal xulqli va barkamol farzandlar tarbiya topurlar". Sharq mutafakkirlari asarlarida oilada er-xotinning tengligini to'rt omil: mol, nasab, imon va husn bilan o'chab yoshlarni oila qurishga tayyorlashda ushbu omillarning mavjudligiga e'tibor qaratish oila barqarorligi, nasl pokligini ta'minlashga asosiy urg'u berilgan.

Maiohat ISKANDAROVA,
Yangibozor tumanidagi
16-maktab o'qituvchisi



Eti sizniki, suyagi bizniki

Ustozga bolani shogirdlikka berayotganimizda shunday deymiz. Ammo bu qaysi davrga taalluqli? Bugungi kunda maktabga bolalarini jo'natayotgan ota-onalar nima deb jo'natishadi?

Bularning maktabdagi ustozlarga, o'roqlarga munosabati qanday? Ayrim ota-onalar borki, o'zlari o'qituvchilarni mensishmaganidek, farzandlariga ham o'zlari bilib-bilmay shu nasrani singdirishayapti. Qanday? Maktabga berayotgan bolasi agar "2" baho olib kelsa, "nega mening bolamga "2" baho qo'yasiz" deb ta'na qilishadi. Shularning natijasida maktabga keladigan bolalar na o'qituvchini va na sinfdoshlarini pisand qiladi. Bolalarning uyda yo otadan, yo onadan qo'rqqani yaxshi bo'lganidek, maktabda ham o'qituvchilardan ozgina hayiqib

Ra'no QAMAROVA,
Navoiy shahridagi
4-sonli AFCHO'1 maktabi o'qituvchisi

Ota-onalar majlisini o'tkazish ham o'qituvchidan mahorat va tajriba talab qiladigan jihatlardan. Bu safargi tanqidiy, tahliliy tarzda o'tkazilgan ota-onalar yig'ilishi 1-V sinfda bo'lib o'tdi.

"Qachon mening ota-onam dars o'tadi?"

Unda sinf rahbari sifatida "Ota-onalar tarbiyaviy soat darsi"ni tashkillashtirish bo'yicha taklif bilan chiqdim. Taklif tortishuv va bahslarga, munozaralarga yo'l ochdi. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan qaror qabul qilishda har bir ota-onalarga alohida-alohida tarbiyaviy soatlar o'tish jadvali bo'yicha mavzular bo'lib berildi. Shunday qilib birinchi tarbiyaviy soat darsini 1-"V" sinf o'quvchisi Boburjonning onasi Zumrad Sulaymonova juma kuni "Vatan posbonlari" mavzusida o'tib berdi. Darsdan so'ng barcha o'quvchilarni savolga tutdi: "Qachon mening ota-onam dars o'tadi, ustoz?". O'quvchilarning faolligi, darsga qiziqishi oshganing guvohi bo'ldim. Bu kabi darslarni yil davomida o'tkazishga qaror qildik. Sinab ko'ring! Foydasi bor.

Farida UTASHOVA,
Bulung'ur tumanidagi
11-maktab o'qituvchisi

Qunduzoy NIYOZOVA,
Shofirkon tumanidagi
4-maktab o'qituvchisi

Ibratnoma

Kitobdan yaxshi do'st yo'q

Bizga "kitob o'qi" deyishmagan, ammo otam kechqurunlari dasturxon atrofida yig'ilganimizda ibratli hikoyalarni so'zlab yoki o'qib berardilar.

Onam esa "Sharq yulduzi" jurnalining har bir sonini intiqlik ila kutar, bo'sh vaqtlarini jurnal o'qishga bag'ishlar edi. Jurnalda berilgan parchalarni o'qish baxt edi men uchun. Moddiy ah-

volimiz tang bo'lib, jurnal obunasi to'xtagan, tanish-bilishlardan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", Said Ahmadning "Jimjitlik", Shuhratning "Oltin zanglamas"

Alisher OCHILBOYEV

Attor do'konidan taralgan navo

Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarida hikoya qilishicha, Hindiston mulkida Qaqqus ismli g'o'zal qush bo'lar ekan. Uning tumshuqlari uzun, har sayraganda tumshug'idagi teshiklaridan yoqimli kuy-sadolar taralib turgan.

Ul shahi oliysifat,
men banda qul!"

U umr bo'yi o'tin yig'ib, umrining so'ngida o'zi yig'gan xirmon ustiga chiqib, shunday g'amgin kuylaydiki, bu kuy ta'sirida butun o'rmondagi qushlar, hayvonlar yig'iladi. Uning g'amgin kuyidan ko'p qushlar halok bo'lishadi. Oxir-oqibat Qaqqusning g'amgin kuyidan xirmonga o't ketadi. Qaqqus sayrab, shu o'tda kuyib halok bo'ladi. Yonib kulga aylangan xirmon ostidan bir Qaqqusbach-

cha chiqadi. Asta-sekin patlar chiqarib ul'ayadi. Otasi singari u ham umri davomida sayrab, o'tin yig'ib, o'z navbatida xirmonda yonib halok bo'ladi. Kul orasidan yana bir jo'ja Qaqqus chiqadi. Buyuk Navoiy Fariddin Attorni dastlabki ota Qaqqusga, o'zini esa jo'ja Qaqqusga qiyos etadi:

"Men demonki,
ul atodir men o'gil,

Sora HASANOVA

Bobur buyukligi sirlari

O'zining qisqagina, 47 yillik umri davomida faqat yaxshilikka intilgan, insoniyat qalbidagi ezgulik imoratini qura olgan bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur adolati shoh, mehribon padar, mashhur shoir bo'lgan.

U 1504-yili Kobulda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Hindiston sultoni Ibrohim Lo'diyni, Chitora hokimi Rano Sangoni yengdi va Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatdi. Bobur davridagi madaniy muhimning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharlar Neru shunday degan edi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljish yuz berdi... U hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi". Bobur — mashhur shoir. U go'zal ruboiylar, nafis g'azallar yaratish bilan birga, soliq ishlarini tartibga soluvchi "Mubayyin al-zakat", aruz vazni haqida "Muxtasar" nomli risola bitdi. "Harb ishi", "Musiqi ilmi" kabi asarlar yozdi. Yigirma yoshida "Xatti Boburiy"ni kashf qilib, "Chorghob" maqomiga mos avtlar yaratdi. Bobur — mehribon padar. Buning isboti uchun Humoyunning kasal bo'lib qolishi haqidagi jumalarni o'qishning qo'zi kifoya qiladi. Humoyunga dori-darmonlar kor qilmagach, "yaxshi narsalardan tasadduq qilmog' kerak" edi. Shunda Bobur "Mening ko'nglumga keldikim, Muhammad Humoyunning mendin o'zga yaxshiroq nimasasi yo'q. Men o'z zam tasadduq bo'layin, Xudoy qabul qilsun", — deb, o'z jonini Humoyunga sadqa qildi. Bu haqda u "Boburmoma"da: "...Tangrining inoyati bilan ul sihat topdi va men noxush bo'lib yiqildim. ...bay'at qo'llarini Humoyunni qo'lga berub... va taxtni anga topshirdim", — deb yozadi. Tirikligida taxtni vorisiga topshirgan hukmdorlar kamdan-kam topiladi. Bobur ana shunday shohlar sirasidan edi.

O'quvchilarga madaniyatli bo'lishni o'rgatir ekan, avvalo, o'qituvchining o'zi ularga o'rnak bo'la olishi kerak. Ularda madaniyatni shakllantirish uchun salomlashish odobiga, toza va orasta kiyinish odobiga, nutq madaniyatiga e'tibor berishimiz kerak.

Tarbiya — har bir pedagogning vazifasi

Bolalar ongiga axloqiy fazilatlarini singdirish, milliy qadriyatlarini o'rgatish, milliy ruhda tarbiyalash asosiy vazifamizdir. Kiyinish madaniyati — insonning tashqi ko'rinishi, ma'naviy dunyosi, axloqiy sifatleri va salohiyatini ochib beradi. Kiyinish madaniyatiga bo'lgan qarash insonning go'zallik, nafosat, odob borasidagi ko'z qarashlarini ifoda etadigan omil hamdir. Demak, eng avvalo, ota-ona o'z farzandining kiyinishiga e'tibor berishi, doimiy nazorat qilishi kerak. Nutq madaniyati tarbiyasi bilan maktabdagi hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari o'qituvchilarni ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, tarix bo'ladimi o'qituvchi o'z nutqiy madaniyatini bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq.

Aziza BEKMIRZAYEVA,
Uchqo'rg'on tumanidagi
44-maktab o'qituvchisi

O'qituvchilik ijodkorlik demakdir

Yaqinda O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va O'zbekiston ixtirochi ayollar uyushmasi tomonidan yurtimizning iqtidorli xotin-qizlari o'rtasida o'tkazilgan "O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi" respublika tanlovida ishtirok etdim.

Unda "Innovatsiya — ijodiy jarayon negizi" loyihasi bilan qatnashdim. Iqtidorli yoki past o'zlashtiruvchilar bilan ishlashda qaysi uslublardan foydalanish — dars samaradorligini oshirishga yordam berishi haqida fikrlar keltirilgan. Bugun maktabda dars berayotgan pedagog har tomonlama intiluvchan, yangi g'oyalarni tez o'zlashtiruvchi, ularni tez amaliyotga joriy etuvchi, har bir o'quvchi bilan alohida ishlashga, ularning qiziqish va intilishlarini munosib baholashga diqqatli bo'lishi talab etiladi. Bu mezonlarga javob berolmaslik o'qituvchining o'zidan ham ko'ra uning o'quvchilariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Dilfuzaxon ABDULLAYEVA,
Jalaquduq tumanidagi
19-maktab o'qituvchisi

Sahifani Suhrob ZIYODOV tayyorladi.

Nuqtayi nazar

Suratdagi xotira

Oxirgi paytlar suratlarga qarab qolyapman. Ularga termula-termula o'zimcha chuqur ma'no o'qiy boshlaganim va hatto, olamni yaxshiroq tushunayotganim haqida avvalgi maqolalarimda yozgandim. Bir suratdan yaralgan ilhom tufayli "Tarix bo'laklari bugunimizni shakllantiradi" nomli maqola yozilgan edi. Unda aytilgan fikrlar, ya'ni xotira qatlamlari, o'tmish plastlari va ularning madaniyatimizda aks etishi haqidagi mulohazalarning davomi o'laroq "Bobolar dasturxon" maqolasi paydo bo'ldi.

Lekin suratga oshuftaligim bu bilan yakunlanmadi. Bir paytlar o'z yisiz tushib tashlagan suratlarni titkilab chiqdim, yaxshilab o'rgandim, har biriga uzoq tikildim. Tikilganlarin sayin o'tmishga kirib borganдай his qilaman o'zimni. Yangi ma'no topaman.

Ammo o'quvchimni suratlarga mahli-yoligim bilan-u, bu izlanish chog'ida tuygan hissiyotlarim bilan aldam qo'ymoqchi emasman. Aslida mulohazalarim o'zimni va o'tgan kunlarimni qayta kashf etish bilan cheklanmadi. Umuman fotografiya fenomeni, uning siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati haqida o'ylab qoldim. Foto nimaga xizmat qiladi? U xotiralarni rostdan aks ettiradimi yoki shuncha-ki aldaydimi?

Fotosurat qo'lda chizilgan rasmdan aniqroqmi?

Fotosurat qo'lda chizilgan rasmining o'rni egallaganiga ko'p bo'ldi. Bir zamonlar salkam mo'jiza hisoblangan fotosurat bugun kundalik hayotimizning bir qismiga aylanib qoldi: qo'limizda telefon bor, telefonda kamera bor, bu kamera yordamida xohlagan paytimiz o'nlab, yuzlab suratlarni tushirishimiz mumkin. 20-30 yil muqaddam tashkilot, shahar yoki davlatning fotoarxivini jamlash, oilaviy fotoalbomlar saqlash ahamiyat kasb etgan bo'lsa, hozir har birimizning telefonimizda, planshetimizda yoki noutbukimizda butun hayotimizni, ishimizni, oilaviy hayotimizni aks ettiradigan, o'n minglab suratlardan iborat arxiv mavjud. Bu suratlarning kattagina qismini ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib ham boramiz, ya'ni xususiy ommaviyga aylantiramiz.

Shunday qilib, fotosurat video va yozma matn qatori insoniyat xotirasining asosiy tashuvchisidan biriga aylanib qoldi. Butun xotiralarni unda jam. Odamlarningina emas, jamiyatning, davlatning ham rasmiy "xotira"si bo'ladi, u ham suratlarda saqlab boriladi. Kengroq olsak, butun insoniyatning fotografik xotirasi mavjud: insoniyatning yangi tarixini fotosuratlarda aks ettirish mumkin.

Odatda surat matndan ko'ra aniqroq, autentikroq xotira tashuvchisi hisoblanadi. Umumiy fikrga ko'ra, suratni aldam bo'lmaydi — u real hayotni o'ziday aks

ettiradi, fotoshop aralashsagina surat soxtalashishi mumkin. Bu jihatdan u nafaqat yozma matndan, balki o'tmishdoshi, ajdodi — qo'lda chizilgan rasmdan ustun hisoblanadi. Aslida ham shundaymi?

Bir qarashda fotografiya texnikasi xotiralarni boricha qotirib qo'yishga mo'ljallangandek, bizni borimizcha ko'rsatadigandek. Lekin fotosurat biz o'ylaganchalik haqqoniy axborot tashuvchisi emas. U ham realikni buzib ko'rsatadi. Mening argumentlarim:

— suratga tushish odatiy hol bo'lib qolgandan so'ng unga maxsus tayyorgarlik ko'rish ham urf bo'lib qoldi: qizlar yasan-tusan qilib oladi, yuzni kichikroq va chiroyli qilib ko'rsatadigan rakursni tanlaydi; kiyimga, turmakka, yuz ifodasiga e'tibor qaratiladi;

— surat hayotimizni, turmush tarizimizni boricha ko'rsatmaydi, balki biz xohlagan narsani ko'rsatadi: odatda hayotimizning faqat eng baxtli, esda qoladigan lahzalarini suratga muhrlab qo'yishga intilamiz; sayohatlar, ziyofatlar, oilaviy tadbirlar, tug'ilgan kun-u to'ylar obyektivlarimizning asosiy nishoniga aylanadi; lekin salbiy xotiralarni muhrlamaslikka urinamiz, masalan, motam marosimlaridan suratlarni odatda umuman olinmaydi; ya'ni surat hayotimizni to'la akslantirmaydi, balki xotiramizni, tariximizni konstrukt qiladi, uni o'zimiz xohlaganday eslashimizga zamin yaratadi, bizning xohishimizni namoyish etadi;


— qolaversa, suratga olishda ham yondashuv, nuqtayi nazar farqlanadi; bitta shaxsni, bitta manzarani uch kishi uch xil suratga oladi, har xil jihatlarga urg'u beradi, har xil rakurs tanlaydi; natijada bita voqea aks etgan uchta suratdan har xil ma'no uqish mumkin.

Shunday ekan, fotografiyani obyektiv haqiqat sifatida qabul qilish kerak emas. Matnda realikni buzish nisbatan oson: matn muallifi, umuman olganda, istagan narsasini yozib tashlashi mumkin, tanqidiy mushohadaga ega bo'lmagan o'quvchi uning har bir so'zini haqiqat o'laroq qabul qilishi ham mumkin. Bunday holatlarning oldini olish yoki kamaytirish matnshunoslik (tekstologiya) sohasining vazifasidir. Matnshunos matnini o'rganib, tahlil qilib, guruchni kurmakdan ajratib berishi lozim.

Aslida suratda ham realikni buzish, boshqacharoq qilib aks ettirish mumkin. Suratni ham tahlil qilib, guruchni kurmakdan ajratishni o'rganish tahliliy dunyoqarashni o'stirishda yordam beradi.

Obyektivda — inson, jamiyat, davlat

Fotosuratning bu xususiyatlari, bir tarafdin, uning obyektiv xotira tashuvchisi sifatida ko'rinishini murakkablashtiradi; baxtli kunlarini,



sayohatlarini suratga muhrlayotgan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi, restoranda dugonalari bilan o'tirishini-yu navbatdagi shopingini va go'zallik saloniga safarini suratga tushirayotgan qiz o'zi bilmagan holda xotirasini konstrukt qiladi, uni pazl misoli o'zi xohlaganday qilib teradi, yomon xotirani itqitib, yaxshisini saqlab qo'yadi. To'g'ri, miyada ikki turdagi xotira ham qoladi, lekin yaxshirog'i artikulatsiya qilinishi, quvonch va baxtga urg'u berilishi pirovardida baxtli hayot kechirilganining illyuziyasini yaratadi. Urush-janjallar, qi-yinchiliklar, muvaffaqiyatsizliklar unutiladi, yoki zaiflashib, baxt, muvaffaqiyat va quvonch oldida kichikroq, arzimasroq ko'rinadi. Shunday qilib, fotografiya mu-

Darvoqe, suratga dinamik, ya'ni harakatda tushganimizda ham aslida harakatni imitatsiya qilamiz — suratga dinamikada tushish uchun biror sun'iy pozada turamiz. Eng kamida yonimizda kimdir bizni suratga olayotganini bilib, shunga yarasha o'zimizni boshqacharoq tutamiz.

Mana shunday sun'iy pozalar, sun'iy harakatlar, sun'iy vaziyatlarga asoslangan butun boshli fotojanrlar borki, ular shaxsiy suratlardan tortib ijtimoiy suratlarga b'lgan korpusni qamrab oladi. Sun'iy harakatlar, shablonlar, an'anaviy pozalar, vaziyatlar bir-birini takrorlaydi. O'zimiz bilmagan holda atrofda qiladigan taqlid qilib, barchaning shaxsiy fotoarxivida takrorlanadigan janrlarga murojaat etamiz.

Keling, ba'zi janrlarni eslaylik.

— bolalikda, to'ylarda, muhim uchrashuvlarda ko'pchilik bir yerga yig'ilib, obyektivga to'g'ri qarab suratga tushadi;

— o'tirish, uchrashuv, ziyofatlarda dasturxon atrofini to'ldirib o'tirgan do'stlar yuzida tabassum bilan kameraga to'g'ri qarab suratga tushadi;

— armiyada qasamyod qabul qilish, nikoh roziligini imzolash, biror

muhim mukofotni qabul qilish olish singari voqealarda endi odatda kameraga qaramay, dinamikada tushiladi.

Kengroq miqyosga o'tsak:

— davlat amaldorlari minbarda turib, stol atrofida to'plangan mulozimlariga gapirayotganida, muhim siyosiy uchrashuvlarda an'anaviy poza va ko'rinishlarda suratga tushadi; ish stolidagi o'tirib, kameraga to'g'ri qarab, yuzida tabassum bilan suratga tushadi; deyarli har doim kostyum-shimda;

— mamlakatdagi jarayonlarni aks ettiruvchi suratlarni — yangi qurilgan binolar, zavodlarda ishlayotgan, albatta kulib turgan ishchilar (sovet davridan qolgan paradigma — hamma albatta kulib turishi lozim), maktab bitiruvchilari, bayram tantanalari va h.k.

Ko'rib turibmizki, shaxsiy darajada ham, davlat miqyosida ham ma'lum priyomlar, texnologiyalar doimiy takrorlanadi va muayyan manzarani yaratadi. Bu manzara deyarli barcha odam uchun umumiy bo'ladi (davlat miqyosida farq yaqqolroq ko'zga tashlanishi mumkin). Ya'ni odam har qancha o'ziga xos, betakror bo'lmasin, baribir atrofda qiladigan taqlid qiladi hamda baxtli hayot haqida shakllangan nuqtayi nazar asosida o'z xotiralarni tartibga solishga intiladi. Agar detallarga e'tibor qaratmay, faqat janrlar va shablonlarga urg'u bersangiz, ko'pchilikning suratdagi xotirasi bir-biriga juda o'xshashligini payqaysiz.



him ijtimoiy, madaniy va ma'naviy vazifa bajaradi: odam o'z o'tmishi, hayotini o'z qo'li bilan xotirasida qaytadan qurib chiqadi va, mohir yozuvchi singari, uning sujetini va yakunini o'zi belgilaydi; mutlaq ko'pchilik xeppi-endga ishqiboz bo'lgani bois oxir-oqibat ko'pchilik o'zini baxtli taqdir egasi deb hisoblay boshlaydi.

Ikkinchi tarafdin, kengroq miqyosda olib qaraganda, odamlarni birlashtiruvchi turli ijtimoiy maydonlarda (oiladan boshlab davlatgacha) fotografiya kollektiv xotirani saqlash, shakllantirish, umumiy mafkura, umumiy manfaatlar, umumiy kayfiyatlarini namoyish etish quroliga aylanadi. Ba'zan bu ish ongsiz ravishda amalga oshiriladi, ba'zida, ayniqsa, davlat, shahar singari siyosiy ko'nlarda ongli, sistematik olib boriladi. Kollektiv xotira maxsus shakllantiriladi va jamiyatda umumiylik yaratish, umumiy paradigmalarni miyalarga singdirishga xizmat qiladi.

Buni amalga oshirishda shablonlarga, paradigmalariga, ideologizmlarga murojaat etish odatda.

"Qimirlamay turing, suratga olyapmiz"

Chiroyli va sifatli suratga tushishning birinchi sharti bo'lgan mana shu "qimirlamay turing"ning o'ziyoq suratning haqqoniyligini, realigini buzadi. Real hayotda biz to'xtab, qimirlamay turmaymiz odatda. Doimiy harakatdamiz.



Millat uchun oyna kerak, toki unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin.

"Men" va "fotoMen"

Rus olimi Sergey Abashin o'z ilmiy faoliyatidagi qiziq holatni aytib beradi: u 1995-yili Tojikistondagi Oshoba qishlog'ida ishlaganida o'ziga g'alati, notabiiy, ekzotik tuyulgan, olis moskvalik olimga notanish bo'lgan holatlarni suratga olgan. Masalan, o'zi turgan uy bekasi non yopganini suratga olgan, lekin aslida bu uyda non kamdan-kam tandirda yopilgan. Shu tariqa suratlar qaranganda Moskva ga umuman o'xshamaydigan an'anaviy o'zbekona qishloq manzarasi gavdalan-gan. Qishloqdagi shifoxona, maktab, klub singari sovet odamiga tanish obyektlar esa fotoarxivdan o'rin olmagan.

2010-yilda inson va olim sifatida ancha ulg'aygan Abashin zamonaviy raqamli fotoapparat bilan qurollanib, yana Oshoba-ga borgan va bu safar ekzotikadan voz ke-chib, zamonaviy obyektlarni fotonishonga olgan. U maktablar, do'konlar, selsovet binosi, urush qurbonlari yodgorligi, Kalin-in haykali, nasoslar, qishloq dalalari, klub va boshqa narsalarni suratga olgan. Qizig'i shundaki, oradan 25 yil o'tib, 1995-yilda moskvalik etnografga tanish va odatiy bo'lgan bu obyektlarning o'zi ekzotikaga, sovet davri qoldiqlariga aylanib qolgan edi.

Bu ajoyib voqea surat aslida qay darajada aldanchi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Hatto atrofimizni emas, o'zimizni suratga olganda ham beixtiyor reallikdan qochamiz, o'zimizni aslidagidan baxtliroq, chiroqliroq va quvnoqroq ko'rsatishga intilamiz.

Lekin bundan fototexnologiya salbiy hodisa ekan degan xulosa qilish kerak emas. U eng kamida bizning dunyoqarashimizni, hayotdan kutilmalarimizni aks ettiradi. Axir suratga tushganingizda o'zingizni obyektiv tarzda ko'rsatmaysiz, balki qanday bo'lishni istashingizni ko'rsatasiz. Shunday ekan, fotoarxivdagi dunyoqarashingiz, hayotingiz, xohishingiz, orzularingiz, armonlaringizdan darak beradi. U sizni boshqalarga tanitadi. Mutlaq obyektiv "Men"ingizni emas, "fotoMen"ingizni. Lekin siz kimsiz o'zi? Bu savolga aniq javobni bilasizmi? Menimcha, yo'q. Hech kim o'zining kimligini oxirigacha bilmaydi va umrining oxirigacha bu savolga javob qidiradi, o'zini, mohiyatini qidiradi. Bu qidiruvlarni yaxshiroq tushunish uchun suratlariga murojaat etiladi. Lekin aniq javob yuzaga chiqmaydi. Chunki mutlaq haqiqatning o'zi yo'q. Mutlaq "Men"ning o'zi yo'q. Inson o'zgaruvchan, doimo o'zgarib, o'sib, rivojlanib boradi (eng optimistik variantda). Shunday ekan, suratlar bir kishini boshqalarga qisdirib bir qiyofada tanitadi. Bu qiyofada mutlaq obyektiv haqiqat bo'lmagan bilan yolg'on ham emas, balki kimningdir ma'lum zamon va makondagi ahvoli, ruhivati va orzu-umidlari in'ikosidir.

Betartib mulohazalarimdan zerikmay, maqola oxiriga yetib kelgan bo'lsangiz, yana besh daqiqa ajratib, quyidagi suratlar-ga e'tibor qaratishingizni so'rayman. Bu suratlarim men olganman. Umuman boshqa maqsadda, shunchaki atrofimda o'zimga go'zal tuyulgan tabiat manzaralarini eslab qolish uchun tushirilgan bu suratlar keyinchalik men uchun yangi ma'no kasb etdi va o'zimni tushunishimga yordam berdi. Sizdan bu suratlariga biroz tikilib turishni so'rayman. Buning natijasida yo men haqimda ma'lum tushuncha shakllanadi, yoki bo'lmasa o'zingiz uchun biror xulosa, taassurot, hissiyot olasiz. So'ng bu haqda menga yoki boshqa bironing hikoya qilib bering, shoyad dunyoni tushunish-ingizda, dunyoqarashingizda biror diqqatga sazovor o'zgarish ro'y bersa.

Eldor ASANOV

Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 145 yilligi oldidan**Jadidchilik fidoyisi**

1874-yil 10-martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy hayotida chuqur iz qoldirgan. U diniy va zamonaviy ilmlarni, xususan, tog'asi Muhammad Siddiq xizmatida mirzalik qilib ish yuritish va huquq ilmlarini ham obdon o'rgangan.

1874-yil 10-martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy hayotida chuqur iz qoldirgan. U diniy va zamonaviy ilmlarni, xususan, tog'asi Muhammad Siddiq xizmatida mirzalik qilib ish yuritish va huquq ilmlarini ham obdon o'rgangan.

Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining "otasi" hisoblanadi. U 1904-yili Samarqandda "Usuli jadid" maktabini tashkil qilgan va "Qisqacha umumiy geografiya", "Bolalar uchun kitob", "Islomning qisqacha tarixi", "Rossiyaning qisqacha geografiyasi" va "Hisob" kabi darsliklar yozgan.

Darsliklaridan tashqari Behbudiy maktab va ta'lim-tarbiya to'g'risida mahalliy nashrlarda ko'plab maqolalar chop ettirgan. Maqolalarida yangi maktablarning ahamiyati, o'qitish tizimi, yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning foydasi, komil inson tarbiyasi haqida dolzarb fikrlarini bayon qilgan.

1919-yil bahorida Behbudiy ikki shogirdi — Mardonqul va Muhammadqul bilan birga xorijga ketayotganida hibsga olinib, Qarshi qamoqxonasiga olib kelinadi va qatl qilinadi.

O'limi yaqinligini bilgan Behbudiy vasiyatnoma yozgan va uni Ahmad ismli kishiga qoldirgan. Bu vasiyatnoma "Inqilob" gazetasining 1923-yilgi 1-sonida bosilgan. Behbudiy o'z vasiyatnomasida Buxoroda ikki oy bandlikda va oxirgi o'n kunda Qarshi qamoqxonasida bo'lganini, kofirlik, sipohlar orasida tilchilik otini ko'targanini, tirik qolishi gumonligini bildirgan. Safdoshlariga shunday vasiyat qilgan: "Maorif yo'lindagilarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingiz! Bizdek maorif qurbonlarini yo'qlangiz! Bizning otimizga maktablar ochingizlar! Manim o'g'lonlarimga salom yetkazingiz! Hamrohlarimning avlodlaridan xabardor bo'lingizlar!"

Behbudiyning matbuotda e'lon qilingan maqolalarida zamonasi behbudiy dolzarb mavzular qalamga olingan bo'lib, ular jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni to'g'irlash, insonlarni g'aflet qorong'iligidan chiqarishga undovchi chaqiriqlar bo'lib xizmat qilgan.

Behbudiy qalamga olgan ayrim jihatlari bugungi kunimizga ham begona emas. 1914-yilgi "Oyina" jurnalining 38-sonida bosilgan "Taraqqiyning yo'li" maqolasi-

da shunday deyiladi: "... ilm-ma'rifatsiz hech bir millat hayot maydonida tura olmas. Xoh ul millat hokim va xoh millat mahkum bo'lsin, ilm-ma'rifatdan mahrum bo'lganligi uchun boshqa san'at va hunar toji bo'lgan millatlarning oyog'i ostida eziluriga majburdir. ...hunarlik boy va boy bo'lmoq uchun nima lozimdur? Albatta, ilm va ma'rifat lozimdur. Ilm va ma'rifat uchun maktab va madrasalar isloh qilinish, nizom va tartibga kirgizilmog'i lozimdur. Shunda millat xalqi faqir va bechora bo'lib yurmaydi".

Yana shu nashrning 1915-yilgi 10-sonidagi maqolasida yozadi: "Aziz birodarlar, o'g'il to'yilarga sarf qilaturg'on aqchalaringizni shul ilm zamoni yo'lga sarf etingiz. Sizdan o'g'lingizga mol meros qolmasa qolmasin, balki albatta ta'lim va tarbiya meros qolsin".

"Samarqand" gazetasining 1913-yil 26-sonidagi "Ehtiyoji millat" maqolasida ham ilmnning ahamiyatini bayon qiladi: "Boshqa millatlarga qaralsa, ko'rinurli muntazam maktablari bor va ul maktablarda diniy ilm ustunda dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilm-fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur".

Behbudiy tilidan yangragan bunday davlatlar mana oradan qancha vaqt o'tsa hamki, dolzarbligini yo'qotmagan. Hukumatimiz tomonidan to'y-hashamlarni tartibga solish borasida qilinayotgan ishlar, yangi yilimizning "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlanishi bu fikrimizni dalillab turibdi.

Do'stmurod MANSUROV, nafaqadagi o'qituvchi

Nurobod tumani

Behbudiy o'g'itlari yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "...2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", deya alohida ta'kidladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning ulkan ilmiy va adabiy merosi, hikmatli o'g'itlari bir asrdan oshdiki, xalqimizning ma'naviy hayot yo'lini yoritib kelayotgan mayoqlardandir. Ayniqsa, bu durdonalar yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega.

Masalan, ulug' ma'rifatparvarning "Teatr — bu ibratxonadir" degan fikrini olaylik. Chindan ham teatr inson tafakkurini yuksaltirishda, xususan yoshlarni ezbulik chorlash, ularda Vatanni sevh, ota-ona, oila va do'stlikni qadrlash, o'z kasbiga fidoyilik tuyg'ularini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ya'ni, u insonga hayotiy saboq beradi. Binobarin, joylarda yoshlarni teatrlarga ko'proq jalb qilish, zamon qahramoni obrazini aks etgan spektakllarni ko'proq yaratish, qolaversa, huquqbuzlik va jinoyatchilikning ayanchli oqibatlarini kelajagimiz sohiblariga sahna asarlari orqali yetkazishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Negaki, hamma yoshlar ham qonunchilik normalarni o'qish yoki eshitish bilan qaysidir noqonuniy xatti-harakatning mohiyatini teran anglamasligi mumkin. Ammo real voqealarga asoslangan spektakllarda ilgari surilgan g'oyalar

nafaqat yoshlar, balki kattalarning ham qalb tubiga yetib boradi.

Behbudiyning fikricha, ma'rifat uchun faqat maktab kifoya qilmaydi. Millat uchun oyna kerak, toki unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu haqiqat u kishini teatrga tashkil etish, ular uchun asarlar yaratishga undagan. O'zbek dramaturgiyasining ilk namunalariidan biri sanalgan "Padarkush" asari shu tufayli yuzaga kelgan.

Yoki bugungi hayotimizning og'riqli nuqtalaridan biriga aylangan to'y va marosimlar masalasini Behbudiy hazratlari ham kuyunchaklik bilan tilga olgan. Jumladan, "To'y va aza kabi ikki qattol dushman oyo-g'imizga tushov bo'lib turibdi. To'y va ta'ziyaga sarflab turgan aqchalarimizni ta'limga sarflasak, Ovro'po kabi taraqqiy topgan bo'lardik". Biroq oradan bir asrdan ziyod vaqt o'tgan bo'lsa-da, ayni masala hamon o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Negaki, yillar mobaynida mis-qollab yiqqan mablag'ini bir kunlik dabdaba va isrofgarchilik uchun sarflayotgan, lekin 15-20 ming so'mga farzandiga kitob olib bermaydigan hamyurtlarimiz hozir ham istagancha topiladi. 2019-yil 14-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashi va Senati kengashining "To'y, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomil-lashtirish to'g'risida"gi qo'shma qarori qabul qilindi. Mazkur qaror shu yilning 1-yanvaridan e'tiboran kuchga kirdi.

Prezidentimiz shu yilning 19-20-fevral kunlari Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifi chog'ida Prezident devoni Xalq kutubxonasi-ni tantanali ochilish marosimida ma'ruzasida ham "Bugungi kunda biz O'zbekistonda jadidchilik harakatining noyob merosini chuqur o'rganish bo'yicha katta ishlarni boshladik. O'tgan yili mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligini keng miqyosda o'tkazdik. Bu yil mashhur jamoat arbobi, alloma va adib Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasini nishonlaymiz. Biz bu ajdodlarimizning ibratli hayoti va faoliyatini qancha ko'p o'rgansak, bizni o'ylantirayot-gan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz", degan fikrlarni bildirdi. Shunday ekan, biz o'qituvchilar ham Yurtboshimiz fikrlariga javoban Behbudiy o'g'itlarini hayotiy misollar orqali o'quvchilarimizga tushuntirishimiz lozim.

Shahnoza BURHONOVA, Farg'ona tumanidagi

26-maktabning o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Tarix saboqlari

Tarixning shunday sahifalari borki, saboq uchun ba'zan varaqlab turishga to'g'ri keladi. Tarix bizniki yoki boshqa xalqniki bo'lishi mumkin — lekin uning bizga daxli yo'q deyolmaymiz. “Agar Kleopatraning burni kichikroq bo'lganida butun yer yuzi o'zgacha qiyofaga ega bo'lgan bo'lar edi («Si le nez de Cléopâtre eût été plus court, toute la face du monde aurait changé.»)”, — degan fransuz olimi va mutafakkiri Bliz Paskal fikrining ma'nosi shuki, aslida insoniyat tarixi bir butun hodisa, shu bois bugungi voqeligimizning ildizlari faqat o'z tariximiz emas, ba'zan boshqa xalqlar tarixiga ham borib taqalishi mumkin.

Ivan Grozniy, to'g'rirog'i, Yovuz Ivan (Ivan IV) bizga sovet (“sovet” atamasini o'zbek tilida “sho'ro” (arabcha: “شورى” — “kengash”) deb emas, o'zgarishsiz berish to'g'ri deb o'ylayman. Chunki ruscha “maslahat, kengash” ma'nosidagi bu atama boshqa tillar, xususan, ingliz, fransuz tillarida (“soviet”), hatto arab tilida ham (“السوفييت”) tarjima qilinmasdan, ruscha shaklda beriladi) davri tarix kitoblari, adabiyot, kino asarlari orqali tanish. Ammo sovet davrida tarix, xususan, Ivan IV shaxsi ham sinfiylik nuqtayi nazaridan o'rganilgan va bu hamon o'zbek o'quvchisi ongida tahrir etilmagan. Ivan IV yakkahokimlik (samoderjaviye) o'rnatish yo'lida oprichniklik kabi achchiq tajriba o'tkazgan, bu jazo mashinasi unga aslo farovonlik keltirmagan, oxir-oqibat o'z farzandi qotiliga aylangan murakkab shaxs. Rossiya tarixining, shuningdek, Ivan IV ning ham turkiy xalqlar bilan aloqador jihatlari ko'p. Ushbu maqolada mavzuni shu nuqtayi nazardan o'rganishga harakat qilamiz.

Ivan IV shajarasi ilk Rus davlati asoschisi Ryurikka borib taqaladi. Shu bois mavzu tushunarliroq bo'lishi uchun, so'zimiz avvalida ilk Rus davlati haqida qisqacha to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

KIYEV RUSI VA “RUS XOQONLIGI”

Rasman Rossiya tarixi IX asrda hozirgi Rossiya g'arbi, Ukraina shimolida Kiyev Rusi (Киевская Русь) davlati paydo bo'lishidan boshlanadi. Monax Nestor va boshqa mualliflar qalamiga mansub “Ik yilnoma” (“Повесть временных лет”) asari Kiyev Rusi haqidagi asosiy manbalardan biridir. Nestorga ko'ra, bir necha slavyan va finugor qabilalari skandinavlardan bo'lgan varyaglar: “Kelib, bizga hukmronlik qiling”, — degan mazmunda Chaqiruv (“Призвание варягов”) yo'llaydi. Chaqiruvga javoban uch aka-uka varyaglar: Ryurik, Sineus va Truvor kelishadi va Ryurik tomonidan Ulug' Novgorod shahrida ilk Rus davlatiga asos solinadi.

Varyag degan alohida millat yo'q, slavyanlar qadimda Skandinaviya yari-morolidan chiqqan xalqlarni “varyag” deb bilgan, Boltiq dengizining qadimgi slavyan nomi — “Varyag dengizi” bo'lgan. Ayni o'sha paytlarda Amerika qit'asigacha yetib kelgan vikinglarga

qarindosh varyaglarning maqsadi aslida rus davlatini qurish emas, slavyanlar yerlaridan o'tib, Konstantinopolga, Ruma (Vizantiyaga) hujum qilish edi. O'sha paytlarda Boltiq dengizidan daryo suv yo'llari orqali Azov va Qora dengizlariga tutashib, Konstantinopolgacha boradigan, xuddi Buyuk ipak yo'li kabi tijorat yo'li mavjud edi. Kiyev shahri “varyagdan yunongacha” (“из варяг в греки”) deb nomlangan mazkur tijorat yo'lidagi muhim shahar edi. Xullas, ilk Rus davlati shu tijorat yo'li sharo-fati bilan maydonga keldi. Rus davlati qurilishidan oldin Kiyev va uning janubidagi yerlar Xazar turklari xoqonligi tarkibida edi. Kiyev Rusi janubga tomon Xazar xoqonligiga mansub yerlar hisobiga kengaydi.

Ammo hali varyaglar (862-yil) “chaqirilmadan” burun, 839-yilga oid Ovro'podagi Sant-Bertin annali degan bir hujjatda qayd etilishicha, bir rus (rhos) elchisi Konstantinopol orqali Ingelheym shahriga kelgan va hukmdorlarining unvoni — “xoqon” (“chacanus”) ekanligini, xoqon nomidan kelganini bildirgan (*Nicholas V. Riasanovsky. Histoire de la Russie. Paris. 2005. 35-bet*). Rossiya Fanlar akademiyasida tayyorlangan “Энциклопедия “Слова о полку Игореве” qo'llanmasida yozilishicha, Kiyev Rusining dastlabki hukmdorlariga nisbatan “xoqon” (“kagan”) unvoni ham “knyaz” bilan birgalikda qo'llanilgan. Ibn Rust va boshqa Islom olami tarixchilari bajanaklar (pecheneglar) va saqolblar (slavyanlar) yashaydigan hududlar o'rtasida “rus xoqonligi” bo'lganligidan xabar bergan. Amerikalik tarixchi N.V.Ryazanovskiy va boshqa tarixchilar, janubiy hududlarda Kiyev Rusidan oldin Rus xoqonligi bo'lgan bo'lishi mumkin, Kiyev Rusining dastlabki hukmdorlariga nisbatan “xoqon” unvoni ham qo'llanilishi esa ushbu yerlarda ulardan oldin hukmronlik qilgan Xazar xoqonligi ta'sirida bo'lgan, degan fikr bildiradi.

Ammo varyaglar skandinavlardan bo'lgani uchun ilk rus davlati hukmdorlari o'zlarini “knyaz” deb atashgan. Shved va boshqa german tillarida “kuning” — “hukmdor”, “kuningaz” (inglizcha “king” so'ziga o'zaktosh) — “shahzoda”, “hukmdor” ma'nolarini bildirgan (*Fasmer M.F. “Этимологический словарь русского языка”*) va “knyaz” — “kuningaz”ning slavyan tillariga moslashtirilgan shaklidir.

Ivan Vasilyevich

Men Odam Atodan to bugungi kungacha o'tgan barcha jinoyatchilardan jinoyatchiroqman...

Ivan Grozniy, 1572

KIYEV RUSI NEGA ISLOMNI QABUL QILMADI?

Kiyev Rusi o'sha davrlarda sharqdan Volga Bulg'oriyasi (tatarcha: Edil bulg'or turklari, hozirgi tatar va boshqirdlarning ajdodlari, 922-yili Islom dinini qabul qildi, keyinchalik esa kuchsizlanib qolgan Xazar xoqonligidan ajralib chiqdi. Nestorga ko'ra, 986-yili bulg'orlarning elchilari Kiyevga kelib, ulug' knyaz Vladimiri Islom dinini qabul qilishga da'vat etadi. Ammo ruslar Islom dini shartlarini, ayniqsa, mast qiluvchi ichimliklarning taqilinishini eshitib, “Rusda ichish zavqlidir, ichimliksiz biz yasholmaymiz” (“Руси веселье питье, не можем без того быти” (*Повесть временных лет. http://lib2.pushkinskijdom.ru/tabid-4869*), deb Islom dinini rad etadi. Oltin O'rda inqirozidan keyin Volga Bulg'oriyasi o'rmda Qozon xonligi paydo bo'ldi va Ivan VI tomonidan bosib olindi.

Kiyev Rusi janubi-sharqida ilgari Xazar xoqonligi tarkibida bo'lgan turkiy va boshqa qavmlar yashar edilar. Keyinchalik, Oltin O'rda tanazzulidan so'ng, bu hududlarda Katta O'rda, Ko'chmanchi O'zbeklar davlati, No'g'ay xonligi, Hoji Tarxon (Astraxan) xonligi paydo bo'ladi. Keyinchalik Hoji Tarxon Ivan IV tomonidan bosib olindi.

Kiyev Rusi janubi, Qora dengiz shimolidagi yerlarda esa o'g'uzlardan bo'lgan bajanaklar (ruscha: печенеги) hukmron edi, Mahmud Koshg'ariy ham bajanaklarni eng g'arbiy, Ruma (Vizantiyaga) eng yaqin yashaydigan qabila, deydi va sozari: “Rumgacha cho'zilgan bulg'ar, suvar, bejeneklar tili bir xildagi so'zlarning oxiri qisqartirilgan bir turkchadir (*Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. I tom. 66-bet. Toshkent. FA nashriyoti. 1960*)”. XI asrda bajanaklar o'rmini qipchoqlar egalladi, bajanak turklari g'arbiga — Dunay daryosi tomon siqib chiqarildi. Oltin O'rda inqirozidan keyin bu hududda Qirim xonligi paydo bo'ldi.

“BOYARLAR” — “BOYLAR” MI?

Kiyev Rusi iqtisodiyoti asosan tijoratga qurilgan edi. Kiyev Rusining dastlabki shakllanish davrida knyazga harbiy yurishlarda hamrohlik qilgan uning “drujina”si “siyosiy elita” hisoblangan bo'lsa, keyinchalik, knyazga eng yaqin toifa — boyarlar tabaqasi paydo bo'ldi.

Boyarlar dumasi, ya'ni kengashi rus davlatchiligidagi paydo bo'lgan dastlabki siyosiy institutlardan biri edi, ammo u aslo g'arbdagi parlamentning muqobili bo'lmagan, boyarlar dumasining vazifasi knyaz hukmronligini cheklash yoki

baham ko'rish emas, knyazga maslahat berish, u bilan hamkorlik qilishdan iborat bo'lgan xolos. “Boyar” deganda hukmron oilaga, ya'ni knyazlarga mansub bo'lmagan mulk egalari, jamiyatda alohida mavqega ega, saroyga, hukmdorga yaqin shaxslar tushunilgan.

Mutaxassislar “boyar” (ruscha: “боярин”) so'zi etimologiyasi xususida hamon bir to'xtamga kelishmagan. M.F. Fasmer “Этимологический словарь русского языка” lug'atida bir qancha izohlar qatori bu so'zning dunay bulg'orlari (turk) tilidan rus tiliga o'tgani, dastlab bu so'z “bolarin” shaklida dunay bulg'orlari tomonidan qo'llanilganini keltiradi. Ba'zi mutaxassislarga ko'ra, “boyar” so'zi turkcha “bay” (“boy”) va “+är” (“er”) so'zlari qo'shilishidan yasalgan. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asarida “bay” so'zi bor, lekin aynan “bay er” shakli uchramaydi, shu bilan birga, “Devon”da “er” so'zi qo'shib yasalgan boshqa so'z birikmalarini ko'rish mumkin: “tig'raq er” — chaqqon, g'ayratli odam; “qulsig'er” — qiliqlari qulga o'xshagan, qulsi-mono odam; “qirg'il er” — o'rta yoshli odam va hokazo. Bizga esa, agar bu so'z turkcha etimologiyaga ega bo'lsa, ko'plik shaklidagi “baylar”dan slavyan-cha “bolarin” kelib chiqqanday tuyuladi.

“Drujina”, “drug” so'zlari rus tiliga skandinav, german tillaridan o'tgan bo'lib, “harbiy guruh”, “askar”, “do'st” kabi ma'nolarni bildirgan. Rossiyalik tilshunosi Y.A.Kleyner “boyar” so'zi ham skandinaviyaga: “beer — boejarmenn” — “qo'rg'onga, saroyga oid” ma'nosidagi so'zdan kelib chiqqan, degan fikri ilgari suradi.

N.V.Ryazanovskiyning yozishicha, boyarlar tarkibiga keyinchalik mayda knyazlarning ham qo'shilishi oqibatida ularning safi nihoyatda kengayib ketdi sva hatto hukmdorning vakolatlarini cheklaydigan omillardan biriga aylandi. Ivan IV (Grozniy) bolalikdan Boyarlar dumasi bilan ziddiyatga kirishib, bir umr ularga qarshi kurashib o'tdi (*Nicholas V. Riasanovsky. Histoire de la Russie. Paris. 2005*).

AMIR TEMUR HISSASI

Kiyev Rusidan keyin Rossiya tarixida “merosxo'r (mayda) knyazliklar” (“удельные княжества”) davri boshlanadi. Gap shundaki, ilk Rus davlati hukmdorlari, ya'ni knyazlarining vorislik an'anasi yo'q edi. Knyaz o'lgach, uning mulki barcha o'g'il farzandlariga bo'lib berilar, oqibatda mamlakat tezda bir-biriga dushman mayda knyazliklarga bo'linib ketdi.

Jo'ji ulusi (Oltin O'rda) hukmronligi davrida ular Oltin O'rda vassallariga aylandi. Bu vassallik uch asr — Oltin O'rda inqirozidan keyin ham qariyb yana

(chindan ham) kasbini oʻzgartiradi

bir asr davom etdi. Oltin Oʻrda inqirozi 1395-yilning 15-aprelida Terek daryosi boʻyida Toʻxtamishxon qoʻshinining Sohibqiron Amir Temur lashkari tomonidan tor-mor etilishidan boshlanadi.

Xoʻsh, Amir Temur boʻlmaganida bugun Rossiya degan davlat boʻlishi mumkinmi?

Toʻxtamishxon davrida Joʻji ulusi (Oltin Oʻrda) ancha zaiflashib qolgan boʻlsa-da, hali oʻz mavqeyini butunlay yoʻqotmagan edi. 1382-yili Toʻxtamish Moskvaga hujum qilib, shaharni ishgʻol etgan, Oʻrdaga qaytguncha, yoʻl-yoʻlakay, bir necha rus shaharlarini ham talon-toroj qilib qaytgan edi. Terek daryosi boʻyidagi jangdan keyin Joʻji ulusi sekin-asta iqtisodiy barqarorligini yoʻqota boshladi. Oradan chorak asr oʻtib Joʻji Ulusidan Sibir xonligi (1420), Oʻzbek xonligi (1428), Qozon xonligi (1438), Qirim xonligi (1441), Noʻgʻay oʻrdasi (Mangʻit yurti — 1440), Qozoq xonligi (1465) ajralib chiqdi. Joʻji ulusining vorisi boʻlib qolgan hudud esa endi Katta Oʻrda (Ulugʻ Oʻrda) deb atalib, Saroy-Berkani oʻz poytaxti etib saqlab qoldi. Moskva esa endi Katta Oʻrdaga vassal boʻlib qolaverdi. Garchi Moskvaning Katta Oʻrdaga vassalligi saqlanib qolgan boʻlsa-da, shubhasiz, Amir Temurning Joʻji ulusiga bergan zarbasi rus yerlarini birlashtirish harakatiga ham turki boʻldi.

“Rus yerlarini birlashtirish” (“собрание русских земель”) harakatining boshlovchisi sifatida tarixga kirgan Ivan III (Ivan IV, yaʼni Grozniyning bobosi) 1476-yilgacha Katta Oʻrdaga oʻlpon toʻlashda davom etadi. Vernadskiyga koʻra, Ivan III ning 1476-yili Katta Oʻrdaga oʻlpon toʻlashni rad etishida uning rumlik xotini Sofya Paleologning ham taʼsiri boʻlgan. Sofya Paleolog Rum (Vizantiya) imperiyasining soʻnggi imperatori, paleologlar sulolasi vakili Konstantin Paleologning jiyani edi. Oʻlpon toʻlash toʻxtatilgach, albatta, Katta Oʻrda bilan toʻqnashuv muqarrar edi.

Bu paytda Ivan III Novgorod knyazligini Moskva knyazligiga qoʻshib olgan, hududlari sekin-asta kengayib borayotgan edi. Bu esa Moskvaning doimiy raqibi Litva knyazligi va Polsha qirolligiga maʼqul emas edi. 1480-yili Litva ulugʻ knyazi va Polsha qiroli Kazimir IV Katta Oʻrda xoni Ahmadxon bilan Moskvaga qarshi ittifoq tuzadi. Ayni paytda, Qirim xonligi Moskva bilan ittifoqdosh, ammo Katta Oʻrda bilan urush holatida edi. 1480-yilning kuzida Ugra daryosi boʻyida Katta Oʻrda va Moskva qoʻshinlari oʻrtasida boʻlib oʻtgan jangga Litva-Polsha harbiy yordam kuchlari yetib kelolmaydi. Sababi yoʻlda ular Qirim xonligi qoʻshinlari bilan toʻqnash keladi. Shunday qilib, Ugra jangida qozonilgan gʻalabadan keyin Moskva uzil-kesil mustaqil boʻladi.

IKKI BOSHLI BURGUT

Rum (Vizantiya) imperiyasining poytaxti Konstantinopol (bugungi

Istanbul) ortodoks nasroniylarining markazi, “ikkinchi Rim” sifatida koʻriladi. 1453-yili Konstantinopol fohit Sulton Mehmet tomonidan fath etildi. 1480-yili Moskva Katta Oʻrda vassalligidan xalos boʻldi. Mayda-mayda boʻlib ketgan knyazliklarni qoʻshib, sotib olib, yorliq berib, bosib olish yoʻllari bilan kengaygan Moskva endi yangi Rus davlatining markaziga aylandi. Endi bu yangi davlatga bir mafkura kerak edi. Oʻsha davrda ruhoniy (mitropolit) Filofey: “Ikki Rim quladi, uchinchisi turibdi, toʻrtinchisi — boʻlmaydi”, (“Два Рима пали, третий стоит, а четвертому не бывать”) — deya, Moskvani — “uchinchi Rim” deb ataydi.

Umuman, tarixda Rim imperiyasi vorisligiga daʼvogʻar mamlakatlar koʻp boʻlgan. Rim — bu yerda ramziy, nasroniylarning “Makka”si oʻrnida koʻrilib, har doim undan mafkura sifatida foydalanilgan. Filofey mantigʻiga koʻra, Moskva ortodoks-pravoslavlar markazi boʻlishi kerak edi. Tarixchi olim G.V.Vernadskiy yozadi: “Filofeyga koʻra, rus sari Rum (Vizantiya) imperatori merosxoʻri boʻlishi, yangi rus hukumati Rum imperiyasi singari cherkov va davlat birligidan iborat boʻlishi kerak edi (Вернадский Г.В. Московское царство)”.

Rum imperiyasining: “imperator ayni paytda bosh ruhoniy hamdir”, degan maʼnoni bildiruvchi soʻnggi ramzi: “ikki boshli burgut” tasviri ham Ivan III davrida Rus davlati ramzi (gerbi) sifatida qabul qilindi. Shuningdek, yuqorida zikr etilganidek, Ivan III ning ikkinchi xotini, Ivan IV (Grozniy)ning buvisi — Sofya Paleolog soʻnggi Rum imperatori — Konstantin Paleologning jiyani edi. Bu ham Moskvaning vorislik, imperiyaga daʼvogʻarligiga dastak boʻlgan omillardan biri edi.

SHUBHALI TUGʻILISH

“Rus yerlarini birlashtirish” (“собрание русских земель”) Ivan III dan keyin uning oʻgʻli Vasilij III davrida ham davom ettirildi.

Vasilij III birinchi xotini — Solomoniya Saburovadan farzand koʻrmadi. Solomoniya taniqli boyarlar sulolasi — saburovlardan edi. Rus tarixchisi knyaz P.V.Dolgorukov “Российская родословная книга” kitobida yozishicha, Rossiya tarixida muhim oʻrin tutgan nasllar: saburovlar, godunovlar, velyaminov-zernovlar tatar (turk) millatiga mansub — Chet Murza ismli shaxsga borib taqaladi. Chet Murza Ivan Kalita zamonida Oltin Oʻrdadan chiqib, Moskvaga kelgan (1330) va Zaxariya ismi bilan nasroniylik dinini qabul qilgan (Долгоруков П.В. Российская родословная книга. Санкт-Петербург: тит. К.Винггебера. 1854–1857. IV tom. 76-bet). Shunday qilib, Vasilij III ning birinchi xotini — Solomoniya Saburovaning qadim ajodlari

turkiylar boʻlishgan (Shu oʻrinda izoh berib oʻtish kerakki, rus manbalarida Oltin Oʻrda tarkibidagi barcha turkiy xalqlarga nisbatan “tatar”, deyilgan. Valholanki, oʻzbekning toʻqson ikki urugʻi ham Oltin Oʻrdadan chiqqan edi).

Vasilij III, farzand koʻrmagach, ikkinchi xotina — knyaz Vasilij Glinskiyning qizi — Yelena Glinskayaga uylanadi va ulardan ikki farzand: Ivan (Grozniy) va Yuriy tugʻiladi. Odamlar bu farzandlar Vasilij III dan emas, Yelena Glinskayaning jazmani, kelishgan, yosh knyaz Tepelov-Obolenskiydan, degan mish-mish ham tarqatishadi.

1533-yili Vasilij III qoʻqqisidan vafot etadi, 3 yoshli Ivan (IV), hali esini tanimasdan, taxtga oʻtiradi. Bu nomigagina, rasman eʼlon qilingan edi, mamlakat uning onasi — Yelena Glinskaya regentligida, knyaz Tepelov-Obolenskiy koʻmagida boshqariladi.

Xoʻsh, Yelena Glinskaya kim? L.N. Gumilyov (Гумилёв Л.Н. От Руси к России. Москва. 1992) va boshqa tarixchilarga koʻra, litva knyazlari — glinskiylar chingiziylar sarkardasi Mamayga borib taqaladi. Mamay (Kichik Muhammad) Oq Oʻrda xoni Berdibekning tumanboshisi va beklarbegisi boʻlib, qiyot urugʻidan edi. Shu bois taxtga hech qachon daʼvo qilmadi, chingiziylar xizmatida boʻldi. Rus tarixchisi P.V.Dolgorukov (1817–1868) oʻzining “Российская родословная книга” asarida glinskiylar shajarasi haqida batafsil toʻxtaladi: “Mamay Kulikovo jangida yutilib, Don daryosi quyilishi hududiga qochdi. U yerda Koʻk Oʻrda xoni Toʻxtamishdan yengilib, Qirimdagi gʻenualiklar qasri Kafaga chekindi va gʻenualiklar tomonidan oʻldirildi. Mamayning oʻgʻli Mansur Qiyot Don va Dunay daryolari oraligʻida koʻchib yurdi va otasidan keyin koʻp yashamadi. Undan ikki oʻgʻil: Leksu (?) va Skidir (Iskandar ?) qoldi. Iskandar oʻz tuyalari bilan Azov (Azaq) dengizi tomon koʻchdi va bedarak yoʻqoldi. Leksu Litva ulugʻ knyazi Vitovtga qasamyod keltirdi. Kiyev shahrida nasroniylik dinini qabul qilib, Aleksandr ismini oldi. Vitovt unga Glinsk va Poltava shaharlarini meros (udel) qilib berdi va Aleksandr oʻzini “knyaz Glinskiy” deb yozadigan boʻldi... (Долгоруков П.В. Российская родословная книга. Санкт-Петербург: тит. К.Винггебера. 1854. III tom. 358-bet)”.

Boshqa manbalarga koʻra, Mansur Qiyot hozirgi Ukraina janubi, oʻsha davrda Litva knyazligiga qarashli Poltava va Glinsk hududlarida Mansur knyazligiga asos soladi. Mansur knyazligi poytaxti Glinsk shahri edi. 1391-yili Mansur Qiyot Amir Timur qoʻshini bilan toʻqnashuvda Samara shahri ostonasida oʻldirilgan. Ammo baʼzi tarixchilar glinskiylarning Mamayga borib taqalishi, birinchi Glinskiy — Aleksandrning Mansur Qiyot oʻgʻli boʻlganligiga shubha bilan qarashadi.

Xullas, P.V.Dolgorukovga koʻra, Mamay avlodlari shu tariqa litva knyaz-

lari — glinskiylarga aylanadi. 1508-yili uch aka-uka glinskiylar: Ivan, Vasilij, Mixail Lvovichlar Moskvaga koʻchib oʻtadi. L.N.Gumilyovga koʻra, glinskiylar ham oʻsha davrda hukmron sulola ryurikovichlardan kam mavqega ega emas edi. Yelena Glinskaya knyaz Vasilij Lvovichning qizi edi.

BOLALIKSIZ BOLALIK

Yelena Glinskaya 1538-yili, eri vafotidan besh yil oʻtib, taxminlarga koʻra, zaharlanish oqibatida hayotdan koʻz yumadi. G.V.Vernadskiy yozadi: “Kichik Ivanga onasi tirikligida, yaʼni sakkiz yoshigacha yaxshi gʻamxoʻrlik qilishdi. Onasi oʻlimidan keyin esa uni suyuqlik tarbiyachisi, onasining jazmani Obolenskiyning singlisi Agrafena Chelyadnina ham mahrum qilishdi. Bola uni xushlamaydigan muhitda oʻzini mutlaqo yolgʻiz his qilardi. U ikki qarama-qarshi qutbda yashardi: bir tomondan, rasman ulugʻ knyaz oʻlaroq saroy va cherkov marosimlarida muhim oʻrin tutar, tantanavor taxtda oʻtirardi, xorijiy elchilarni qabul qilganda unga xushomad qilishar, yuzaki hurmat koʻrsatishardi. Boshqa paytlarda esa uni mutlaqo unutilishar, kamsitishardi, hatto qorni toʻyib ovqat yemasdi. Nafaqat uning ulugʻ knyaz maqomiga, balki otasi Vasilij III xotirasiga ham hurmatsizlik koʻrsatishardi (Вернадский Г.В. Московское царство)”.

Yelena Glinskaya oʻlimidan keyin davlatni boshqarish Boyarlar dumasi zimmasiga tushadi, lekin duma aʼzolari oʻrtasida ziddiyat kuchli edi, knyazlar: Shuyskiy va Volskiy guruhlari oʻrtasida hokimiyat uchun kurash boradi. Kichik Ivan, ayniqsa, shuyskiylar tomonidan koʻp kamsitiladi.

Ivan IV keyinchalik Andrey Kurbskiy (Князь Андрей Курбский Ivan IV ning harbiy sarkardasi, eng yaqin kishilaridan biri boʻlgan. Qozon, Qirim urushlarida qatnashgan. Ammo Livoniya urushidagi magʻlubiyatdan keyin Ivan IV tomonidan kechirim boʻlmasligini bilib Litva-Polsha knyazligiga qochib oʻtgan ilk rus dissidenti. Ammo keyin ham Ivan IV ning A.Kurbskiy bilan maktab orqali munosabatlari davom etgan.)ga yozgan maktubida bolaligini shunday eslaydi: “Oʻshanda ustim yu-pun, ochlikdan ne dardlarni boshdan kechirmadim. Irodam mutlaqo oʻzimga tegishli emas edi, hamma narsa mening ixtiyoriga qarshi edi. Bir voqeani yaxshi eslayman: biz ukam Yuriy bilan oʻynab oʻtirardik. Knyaz Ivan Shuyskiy tirsagini otamning toʻshagiga, oyogʻini oʻrindiqqa qoʻyib kursida oʻtirar, bizga eʼtibor ham bermas edi. Bu takaburlikka qanday chidash mumkin (Vernadskiy G.V.)”. Albatta, arzimagan bu eʼtiborsizlik Ivan Shuyskiyga qimmatga tushadi va keyinchalik boshi bilan javob beradi.

Abduvohid HAYIT

(Davomi keyingi sonlarda.)

Kamtarin va samimiy olim

Taniqli tilshunos, filologiya fanlari doktori Durdon Xudoyberganova 1960-yil 17-martda Toshkent shahrida ziyoli oilasida tavallud topgan. 1977-yili o'rta maktabni tugatib, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi va uni muvaffaqiyatli tamomladi.

Talabalik yillari Ayyub G'ulomov, Miraziz Mirtojiyev, Yormat Tojiyev kabi mashhur o'zbek tilshunolarining ma'ruzalarini tinglagan Durdonaning tilshunoslik ilmi qiziqishi ortgan. Uni lingvistika olamiga yetaklagan ustoz — professor Miraziz Mirtojiyevning maslahati bilan 1984-1987-yillari O'zFA O'zbek tili va adabiyoti instituti aspiranturasida tahsil oldi. Aspiranturani tamomlagach, mazkur institutga ishga qabul qilindi va shundan keyingi o'ttiz yildan ortiq faoliyati shu ilm dargohi bilan bog'liq bo'ldi.

D.Xudoyberganova 1989-yili akademik Azim Hojiyev rahbarligida "O'zbek tilidagi o'xshatish konstruksiyalarining semantik va stilistik tahlili" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. 2005-yili unga katta ilmiy xodim ilmiy unvoni berildi. 2015-yili esa akademik Azim Hojiyev rahbarligida "O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Doktorlik dissertatsiyasi mavzusi dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan antroposentrik tadqiq tamoyillarini o'zbek tilini o'rganishga tatbiq etishga bag'ishlangani bilan dolzarblik kasb etadi. Olima o'z tadqiqotida matnning kognitiv-semantik, lingvomanadaniy va psixolingvistik tahlil qilishning nazariy asoslariga doir qarashlarni ilgari surdi. Uning mazkur ishi hamda "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli monografiyasi (Toshkent, 2013) o'zbek tilshunosligida antroposentrik paradigma asoslangan dastlabki tadqiqotlardan biri sifatida e'tirof etildi. Maqolalari respublikamizdan tashqari Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Janubiy Koreya, Polsha, Makedoniya, Qozog'iston kabi davlatlarning ilmiy jurnallarida ham chop etilgan.

D.Xudoyberganova o'zbek lug'atshunosligiga muayyan hissa qo'shgan olim hisoblanadi. U 2006-2008-yillari nashr qilingan 5 jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni yaratishda A.Hojiyev, E.Begmatov, E.Umarov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, Z.Mirahmedova kabi olimlar bilan hamqadam bo'lib, lug'atning S, X, Ch harflari uchun lug'at maqolalarini tuzdi, kitobning tahrir hay'ati a'zosi sifatida uni tahrir qilish va nashrga tayyorlash ishlarida faol ishtirok etdi.

Olima hozirgi vaqtda "Antroposentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"ni tuzish ustida ish olib bormoqda.

D.Xudoyberganova filolog kadrilar tayyorlash ishlariga ham munosib



hissa qo'shib kelmoqda. Shu vaqtda qadar 4 ta doktorlik, 26 ta nomzodlik ishiga rasmiy opponentlik qilgan. U 2010-2012-yillari O'zFA Til va adabiyoti instituti huzuridagi, 2018-2019-yillari Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashlar a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Tinib-tinchimas olim badiiy ijod bilan ham shug'ullanadi. Talabalik davrida respublika matbuotida chop etilgan she'rlari Zulfiya, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Xurshid Do'stmuhammad kabi shoirlar va adiblarning e'tiborini tortgan. Akademik Baxtiyor Nazarov D.Xudoyberganovaning "So'zga aylangan yurak" (Toshkent, 2013) nomli kitobiga taqrizda shunday yozgan edi: "So'zga aylangan yurak" to'plamining zalvorli qismini ... yuragingizga "jiz" etib tegadigan va ko'ngil ko'zlarini ochadigan she'rlar tashkil etadiki, bu hol to'plamni nainki muallif, balki umuman bugungi she'riyatimizdagi izlanishlarning go'zal namunalari qatoriga qo'yishga asos beradi".

D.Xudoyberganova ilm-fanda erishgan yutuqlarida oilasi, xususan, turmush o'rtog'i — advokat Abror Yusupovning alohida o'rni borligini e'tirof etadi. Ushbu oilaning barcha farzandlari oliy ma'lumotli: Go'zal Sobirova — ingliz tili o'qituvchisi, Bobur Yusupov — iqtisodchi, Dilnoza Turpova — bo'lajak dizayner.

Kamtarin va samimiy olim qutlug' yoshni qarshi olmoqda. Unga sihat-salomatlik va ilmiy ishlarida yanada rivoj tilab, o'zbek tilshunosligi ravnaqi uchun yana ko'p yillar samarali xizmat qilishini tilab qolamiz.

Nizomiddin MAHMUDOV,
filologiya fanlari doktori, professor,
Durdona LUTFULLAYEVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

Qutlov

Odatda, ilm va ijod ahli o'z sohasiga oid mavzularda qush parvozidek erkin qalam tebratadi. Biroq hamkasblari to'g'risida biron narsa qoralab berish qiyin kechsa kerak. Ayniqsa, ustozlar haqida yozishga kelganda har qanday shogird mulohazaga borib qolarkan. Qancha ta'riflanmasin, ustozning qaysidir fazilatlarini, o'ziga xos xislatlarini qolib ketayotgandek tuyulaveradi go'yo. O'zbekistondagi ko'plab sharqshunoslarning ustozlari Ahadjon aka haqida yozish ham shunday zalvorli.

Ibratga munosib umr

Tarix fanlari doktori, professor Ahadjon Hasanov 1940-yil 29-martda Toshkent viloyati Piskent shahrida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. U kishi o'zi o'qigan maktab, dars bergan o'qituvchilari haqida juda ko'p gapiradi va barchasini o'ta iliq taassurotlar bilan eslaydi. Maktabni bitirib, 1958-yili Toshkent davlat universitetining Sharq fakultetiga o'qishga kirgan va 1964-yili mazkur oliy o'quv yurtini imtiyozli diplom bilan tugatgan.

Domla mehnat faoliyatini dastlab 1964-yili o'zi o'qigan fakultetida dars berishdan boshlagan. Uzoq yillik pedagogik faoliyati davomida o'qitishning an'anaviy va eng ilg'or usullaridan foydalanib, minglab talabalarga ta'lim bergan.

Ahadjon Hasanov dars berish bilan birga, ilmiy-tadqiqot bilan ham shug'ullandi. Ko'pyillik tinimsiz mehnati natijasida 1975-yili "Misr mamluklarining ijtimoiy-siyosiy tizimi" mavzusida nomzodlik, 1994-yili "Qadimgi Arabiston tarixi va uni o'rganish muammolari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. 2002-yili esa "Islom tarixi va manbashunosligi" ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi.

Ustoz haqida kimdan so'ramang, kamtar, xokisor, bag'rikeng inson degan ta'riflarni eshitasiz. Darhaqiqat, u kishi qaysi tashkilotda qanday lavozimda ishlamasin, ana shu insoniy fazilatlarini bilan hurmatga sazovor bo'lib kelgan.

Sharqshunoslik, dinshunoslik, islomshunoslik bo'yicha yurtimizning eng yirik va e'tiborli mutaxassislaridan hisoblangan A.Hasanov 20 dan ortiq ilmiy monografiya, risola, darslik va o'quv qo'llanmalar muallifi. Jurnallar, ilmiy to'plamlar, gazetalarda 100 dan ortiq, qomusiy va izohli lug'atlarda 50 dan ziyod maqolalari e'lon qilingan.

Ahadjon Hasanov nafaqat olim, balki mohir ustoz ham sanaladi. Uning rahbarligida 4 ta nomzodlik, 1 ta doktorlik dissertatsiyasi yoqlangan va shogirdlari orasidan taniqli davlat va jamoat arboblari yetishib chiqqan.

Ustoz ko'pyillik ilmiy, pedagogik faoliyat bilan birga, juda katta hayot yo'lini bosib o'tgan. Bunda tarjimonlik alohida o'rin tutadi. Ahadjon aka to'rt yil Misrda, uch yil Liviyada nufuzli vakolatxonalarda arab tili tarjimoni bo'lib ishlab, rasmiy hukumat muzokaralarida qatnashgan. Shuningdek, Suriya, Livan, Saudiya Arabistoni kabi arab dunyosining yirik davlatlarida xizmat safarlarida bo'lgan.

Domla 13 yildan ortiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Din ishlari bo'yicha konsultanti, ye-



takchi va bosh konsultanti vazifalarida ishladi.

Hozir ustoz O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA" kafedrasini profesori lavozimida faoliyat yuritmoqda.

Ahadjon aka Toshkent, Samarqand, Buxoro, Moskva, Qozon, Qohira, Buxarest, Parij, Yujin(AQSH)da o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanlarda rus, arab va ingliz tillarida turli dolzarb mavzularda ma'ruzalar o'qigan.

Ta'lim berish, ilmiy faoliyat bilan birga domla keng qamrovli jamoatchilik ishlari bilan ham band. Ustoz O'zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar kengashi a'zosi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi kengash a'zosi va islomshunoslik fanlari bo'yicha ilmiy kengash raisi o'rinbosari sifatida jo'shqin faoliyat olib bormoqda.

Olim juda ko'p ilmiy, badiiy asarlarni o'qigan va hozir ham mutazam mutolaa qiladi. Bu holat u kishi bilan bo'ladigan suhbatning dastlabki soniyasidanoq ma'lum bo'ladi. Domlada ilm ahliga xos odob, bosiqlik, keng qamrovli mushohada kabi fazilatlarining barchasi mujassam. Har bir shogirdi va ko'mak so'ragan har bir inson bilan erinmay ishlaydi, so'zlarini oxirigacha eshitib, muammoni hal etish yo'llarini ko'rsatishga harakat qiladi.

Kishilarga yaxshilik, ezigulik ulashish va xayrli ishlar qilish inson umrining mazmun-mohiyatini belgilashi hayot qonuniyatlaridan biri hisoblanadi, mana shu fazilatlarining jami Ahadjon akada mujassam.

Hayot deb atalmish inson umrining ham sevinchli, ham mahzun lahzalarini ularning qanday bo'lishiga qaramay, sermazzun, barakotli o'tkazgan ustoz 80 yoshni qarshilamoqda. Biz shogirdlari, hamkasblari, ilm ahllari ibratli hayot yo'lini sharaf bilan bosib o'tgan ustozni tabarruk yoshi bilan qutlab, uzoq umr, mustahkam sog'liq tilaymiz!

Zohidjon ISLOMOV,
filologiya fanlari doktori, professor,
Ne'matullo MUHAMMEDOV,
tarix fanlari doktori

Faslning eng yaxshi ijodkori

Qish fasli g'oliblari

Fasllar kelinchagi deb ta'rif beriladigan bahor mavsumida qish faslida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinadi. Bu yilgi qish faslida ham gazetamiz sahifalarida ko'plab qiziqarli, o'qishli, metodik tavsiyalarga boy materiallar berilganini ta'kidlash joiz. Tahririyatimiz tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Faslning eng yaxshi ijodkori" tanlovining qish fasli (2019-yil dekabr, 2020-yil yanvar, fevral) g'oliblarini aniqlash jarayonida belgilangan nominatsiyalar bo'yicha g'oliblikka da'vogar nomzodlarning ko'pligi bizni xursand etdi. Albatta, ularning ichidan eng munosiblari saralandi va g'olib deya e'tirof etildi. Bahorni g'oliblik bilan boshlagan ijodkor mushitariyalarimizga, ilg'or pedagog va mualliflarimizga samimiy minnatdorlik bildiramiz. G'oliblarni muvaffaqiyat bilan tabriklab, ijodlariga baraka tilab qolamiz.

Tanlov nominatsiyalari nomi	G'olib material nomi va e'lon qilingan sanasi	G'olib mualliflar
"Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola"	Davlat buyurtma berdi, natija nega sezilmayapti? (19-fevral)	Baxtiyor Mengliyev, ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori
"Pedagog-muallifning dolzarb materiali"	Yangi darslik: E'tirof-u e'tirozlar... (19-fevral)	Gulnoza Xoldorova, Namangan tumanidagi 21-IDUMI ona tili va adabiyot o'qituvchisi
"Eng yaxshi ocherk yoki esse"	Pomuqlik "don Kixot" (8-yanvar)	O'rolboy Qobil
"Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif"	"Adolat qutisi" nega bo'm-bo'sh? (18-dekabr)	G'ayratjon Qorabekov, Bulung'ur tumanidagi 11-maktab o'qituvchisi
Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.		
"Voqelikka munosib sharh yoki munosabat"	O'zbekiston nega tarixini qayta ko'rib chiqishi lozim? (12-fevral)	Eldor Asanov
"Mazmunli intervyu, suhbat"	Attestatsiya: ko'zbo'yamachilik va mas'uliyatsizlikka barham beraylik! (29-yanvar)	Zilola Madatova
"Sermazmun sahifa"	"Ma'rifat" mahorat maktabi (22-yanvar)	Humoyun Quvondiqov
"Samarali metodik material"	She'rni oson usulda yodlatish (26-fevral)	Gulrom Yo'ldosheva, Olmazor tumanidagi 224-maktab o'qituvchisi
"O'qishli badiiy asar"	Nomus (11-dekabr)	Baxtiyor Abdug'afur
Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.		
"Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material"	Bizga qo'shimcha bino qurib bering! Yoxud ikki smenadan uch smenaga o'tishga majbur bo'layotgan maktab (22-yanvar)	Abdusalom Sattorov, Bekobod tumanidagi 10-maktab direktori
"Eng yaxshi tarjima materiali"	Dunyoning eng g'amgin hikoyasi (26-fevral)	Javlon Jovliyev tarjimasi
"Talaba-jurnalistning yorqin publististik ishi"	Bittagina avtobus bering! (22-yanvar)	Yulduz Abdurashidova, O'zJOKU talabasi
"Jozibali fotolavha yoki surat"	Bayram qizg'in o'tmoqda (1-yanvar)	Burhon Rizoqulov
Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi mukofot bilan taqdirlanadi.		

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI

RESPUBLIKA
IXTISOSLASHTIRILGAN
MUSIQA AKADEMIK
LITSEYI 2020-2021-O'QUV
YILI UCHUN QABUL
E'LON QILADI!



Akademik litseyga umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfni tamomlagan, sog'lig'i jihatidan o'qishga yaroqli deb topilgan, yozma hamda ijodiy imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar o'qishga qabul qilinadi.

Nomzodlar 1-20-iyun kunlari Qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim:

- nomzodning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan akademik litsey direktori nomiga ariza (namuna beriladi);
 - nomzodning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan to'ldirilgan so'rovnomasi (namuna beriladi);
 - nomzodning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi nusxasi;
 - 086-U shakl bo'yicha tibbiy ma'lumotnoma;
 - nomzodning tibbiy daftarchasi (063 shakl);
 - 6 dona 3x4 sm o'lchamli rangli fotosurat;
 - nomzodning o'qish joyidan baholar tabelining nusxasi;
 - nomzodning ota-onasining (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning) pasportlari nusxalari.
- Kirish imtihonlari 20-30-iyun kunlari o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mehnat jamoasi katta ilmiy xodim, filologiya fanlari nomzodi Mahmudjon Shoniyozovga onasi **Bibisulton O'RINOVA**ning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.



ELXOLDING

ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi

Aziz vatandoshlar, muhtaram o'qituvchi va murabbiylar! Sizlarni bahor, yangilanish ayyomi — Navro'zi olam bilan muborakbod etamiz!

Ona tabiatning uyg'onish fasliga hamohang ushbu shodiyona kunlari yurtimizning har bir oilasiga jo'shqinlik, mehr-muhabbat, bag'rikenglik, bahoriy xush kayfiyat va qut-baraka olib kelsin. Siz, azizlarga Vatanimiz ravnaqi, farovon turmushimizni yanada yuksaltirish yo'lidagi ezgu ishlaringizda omad va zafarlar tilab qolamiz!



Manzilimiz: Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 36-uy.
Telefonlar: (+99866) 234-01-51, (+99866) 234-08-47.
E-mail: elxolding@bk.ru, www.elxolding.uz

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. G-329. Tiraji 10966. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Nazokat Xolmetova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'za yakuni — Topshirildi — 21.05

1 2 3 4 5 6